

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
KASB TA‘LIMI FAKULTETI

KASB TA‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI KAFEDRASI

**“Kasb-hunar kolleji o`quvchilariga Kiyimlarni modellashtirish
fanidan “Ayollar uy kiyimlarini modellash va badiiy bezash”
mavzusini o`qitish uslubiyotini takomillashtirish”
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY
ISHI

Namangan-2019

Mundarija

	KIRISH.....	2
1	Tadqiqot mavzusining dolzarbligi	
2	Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari.	
3	Tanlangan ob’yektlar va tadqiqot usullari	
4	Ishdagi ilmiy yangiliklar va erishilgan natijalar.	
5	Ishning amaliy ahamiyati.	
6	Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi xaqidagi umumiy a’lumotlar.	
I.	Kasb- hunar kollejlarda o’qitilayotgan modellashtirish fanidan “Ayollar uy kiyimlarini modellashtirish va badiiy bezash” mavzusini amaliy ahamiyati.....	
1.1.	Kiyim rivojlanishining tarixiy bosqichlari.....	6
1.2.	Zamonaviy kiyimlar turlari	12
1.3.	Ayollar uy kiyimlariga qo’yiladigan talablar.....	17
1.4.	Ayollar uy kiyimlari uchun ishlatiladigan gazlamalar xossalari va ularga qo’yiladigan talablar	29
1.5.	Ayollar uy kiyimni loyihalashda ishlatiladigan o’lchov turlari va ularni gavddadan olish usullari	31
1.6.	Turli hil uy kiyimlarini andozalarini ishlab chiqish	34
1.7.	Ayollar uy kiyimini badiiy bezash.....	
II	Kasb-hunar kolleji o’quvchilariga Kiyimlarni modellashtirish fanidan “Ayollar uy kiyimlarini modellashtirish va badiiy bezash” mavzusini o’qitish uslubiyotini takomillashtirish yo’llari	
2.1.	”Ayollar uy kiyimlarini modellashtirish va badiiy bezash” mavzusini o’qitishda pedagogik texnologiya konsepsiyasi va uning ilmiy asoslari.....	44
2.2.	”Ayollar uy kiyimlarini modellashtirish va badiiy bezash” mavzusini o’qitishda qo’llaniladigan pedagogik texnologiyalar turlari.....	47
2.3.	”Ayollar uy kiyimlarini modellashtirish va badiiy bezash” mavzusi bo’yicha dars ishlanma.....	59
2.3	Tajriba va sinov ishlari, ularning natijalari.	63
	Xulosa.....	71
	Foydalanilgan adabiyotlar.....	72

Kirish

Fan texnika taraqqiyotining yuksak odimlar bilan rivojlanib borishi ta'lim tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarni olib kirayotgan o'qishning interfaol uslublarini qo'llash ya'ni kompyuterlar vositasida darslarni tashkil etish va o'qitish shu kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Hozirgi vaqtda kasb-hunar kollejlarda, maktablarda, barcha ta'lim muassasalarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan va boshqalardan foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev 3 aprel kuni yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan 5 ta tashabbusni amaliyotga joriy etish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.¹

Xususan, birinchi tashabbus bo'yicha yoshlarni madaniyat va san'at muassasalariga keng jalb etishga oid dastur loyihasi tayyorlangan. Unga muvofiq, 2019–2020 yillarda 14 dan 30 yoshgacha bo'lgan 2 million nafar yoshlarni madaniyat va san'atga jalb etish bo'yicha hududiy «yo'l xarita»larini tasdiqlash ko'zda tutilgan. Shuningdek, bolalar musiqa va san'at maktablarida qo'shimcha sinflar, madaniyat markazlarida cholg'u, xonandalik, tasviriy san'at to'garaklari, havaskorlik teatr jamoalari va bolalar ansambllarini tashkil etish belgilangan.

Ikkinchi tashabbus yuzasidan tayyorlangan yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etish, sport inshootlari quvvatini oshirishga qaratilgan dastur loyihasida yaqin 2 yilda har bir tumanda yengil konstruksiyali, sendvich panelli kichik sport zallari qurish belgilangan.

Uchinchi tashabbus — aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanish chora-tadbirlariga oid dastur doirasida 2019–2020 yillarda tuman va shaharlarda raqamli texnologiyalar o'quv markazlari tashkil etish va ularda bepul ta'lim berish, 19 mingga yaqin ijtimoiy soha ob'ektini yuqori tezlikdagi internet tarmog'iga ulash ko'zda tutilmoqda.¹

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus. 2019 y 19 mart

Beshinchi tashabbus bo'yicha hududlarda tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish va xotin-qizlar bandligini ta'minlash chora-tadbirlari dasturi loyihasi tayyorlangan. 2019–2020 yillarda har bir tumanda yengil konstruksiyali tikuv-trikotaj korxonalarini qurish va ayollarni band etish ko'zda tutilmoqda.²

2019 yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga Murojaatnomasida shunday so'zladi: «Yoshlarimizga munosib ta'lim berish, ularning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarishimiz kerak. SHu maqsadda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishimiz, o'rta va oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va o'quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerak.»³

“Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy salohiyatni yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash ko'lamini kengaytirish – eng muhim masalalardan biridir.”

Tikuvchilik sanoati oldida turgan asosiy vazifalardan biri aholini o'zimizda ishlab chiqarilgan sifatli tayyor mahsulotlar bilan ta'minlashdir. Bu esa o'z navbatida ishlab chiqarishni to'g'ri tashkil qilishni taqazo qiladi. Tikuvchilik mahsulotlari tannarxining 90 foizni ularni tikishga sarf bo'ladigan materiallar qiymati tashkil qiladi. SHuning uchun mahsulot tannarxini kamaytirish va ishlab chiqarish rentabelligini oshirishning eng samarali yo'li – mahsulot sifatini yomonlashtirmay turib, chiqindilarni kamaytirish, rezervlarni topish va materiallarni tejashdir.

Respublikamizda mavjud imkoniyatlardan foydalanib, sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, jahon bozorida raqobatbardosh mahsulotlar

² Mirziyoyev Sh.M. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus. 2019 y 19 mart

³ 2019 yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga Murojaatnomasi. T.2018 y, 28 dekabr

bilan savdo qilishga erishish bugungi kunda yechimini kutayotlan asosiy muommolardan biridir.

Kasb-hunar kollejlari tamomlab chiqayotgan bitiruvchilarni ishga joylashtirish. Bu masala ko'p jihatdan ularni tayyorlash sifati va mehnat bozorini qanchalik chuqur o'rganishimizga bog'liq ekanini unutmaslik kerak⁴

Ta'lim sifatini oshirishga kuchli ta'sir qila oladigan didaktik vositalar, masofadan o'qitish dasturlari, qurilmalar, elektron pochta, elektron kutubxonalar, masofadan o'qitish dasturlari, animasion, ya'ni ta'sir va tovushni o'zida mujassamlashtirgan ko'rgazmali qurollar barchasi aynan kompyuter texnikasiga va amaliy mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil etishga asoslanadi.

Ta'lim-tarbiya tizimidagi islohotlar ta'lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlash jarayonini ham bevosita qamrab olgan. Zero,1- Prezident I.Karimov ta'kidlaganidek, “Kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq”⁵.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda shuni aytish joizki kasb-hunar kollejlari ta'lim jarayonida shunday o'qitish metodlarini tadbqiq etish joizki, ular oxir – oqibatda o'quvchi-talabalarni mustaqil o'qish, fikrlashga, ilmiy-texnikaviy axborotlar bilan ijodiy ishlashga o'rgatsin, o'quvchi – talabalarni o'ziga xos fikrlashga yo'llasin, ishchanlik qobiliyatini rivojlantirsin, o'qishga, mustaqil bilim olishga qiziqishini oshirsin, o'z faoliyatiga tanqidiy yondashishni tarbiyalasin, o'zgaruvchan ishlab chiqarish sharoitiga tez moslashish ko'nikmalarini shakllantirsin.

Kasb-hunar kollejlari o'qitilayotgan bir qator maxsus fanlarni o'qitish bilan birga nazariy mashg'ulotlarni mustaqil o'zlashtirish uchun amaliy mashg'ulotlarni

⁴ Karimov I.A. 2010 –yil yakunlariga bag'ishlangan ma'ruzadan. 22.01.2011 “Халқ сўзи” gazetasi, №16.

⁵ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 61-b.

loyihalash jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar asosida tashkil qilish hozirgi ***davrning dolzarb masalalaridan xisoblanadi.***

Axborotlar ko'paygan va texnik vositalar rivojlanib borayotgan hozirgi davrda texnikaviy yunalishdagi fanlarni o'qitish jarayonida har bir mavzuga doir ma'lumotlar berishda faqatgina kitobdagi ma'lumotlar bilan cheklanib qolmasdan mavzuga oid proyeksion ko'rgazmalar, elektron darsliklardan, internet ma'lumotlari, turli dasturlarda tayyorlangan animatsiyalardan foydalanish juda muhim hisoblanadi.

Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari keyinchalik tikuv fabrikalarida, yakka tartibda ish olib boruvchi tikuv sexlarida, kichik tikuv firmalarida tikuvchi chevar sifatida ishlashlari, ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat ko'rsatadi, ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirishadi, jumladan internet bilan bevosita ish olib borishlari muqarrar.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib BMI da hozirgacha o'z o'rnini yo'qotmagan, konstruksiyasi va bichimiga, moda yunalishiga qarab tez - tez zamonaviy chizgilar, bezaklar, taqinchoqlar kabi o'zgartirishlar kiritilayotgani uy liboslarini zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda tikish metodlarini tadqiq qilishni hamda mavzuni zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda kasb hunar kollejlarida "Ayollar uy kiyimlarini modellash va badiiy bezash" mavzusidagi nazariy mashg'ulot loyihasini ishlab chiqishni maqsad qilib qo'ydik.

Bu mavzuni tanlashimizga sabab, hozirgi kunda ko'pgina tikuvchi chevarlarimiz ko'ylaklarni o'zlari bilgan holda modellashtirib yaratmoqdalar. Lekin keng iste'molchilar ommasini talabini qondirishda ayrim muammolar kelib chiqmoqda. Ya'ni, aytib o'tganimizdek ba'zi tikuvchilarimiz andozalarni tayyorlashda talab etiladigan qoidalarga amal qilmasdan (kasb-hunar kollejlarida o'qimagan, ish tajribalarini mustaqil o'rgangan, o'zlari kabi ustozlarga shogird tushgan chevarlar nazarda tutiladi) uy kiyimlarini modellashtirish, andozalarini tayyorlash va tikishda jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yishmoqda. Bu kamchiliklar

kiyimni kiyganda yaqqol ko`zga tashlanadi. Shuning uchun kasb - hunar kollejlari, mustaqil o`rganuvchi bichish – tikish kurslari o`quvchi talabalari uy kiyimlarini modellash, bichish bilan birga tikish yuzasidan kerakli tavsiyalar keltirilgan sodda va tez o`zlashtiriladigan nazariy mashg`ulotlarni tashkil etish bo`yicha uslubiy ko`rsatmalar ishlab chiqish, **hozirgi kunning dolzarb muammolardan** biri deb hisoblaymiz.

Ishning maqsadi: Kasb-hunar kollejlari kichik mutaxassislarini tayyorlash jarayonini takomillashtirish maqsadida “Ayollar uy kiyimlarini modellash va badiiy bezash” mavzusidagi nazariy mashg`ulotlarni hamkorlikda o`qitishning “Arra”, ya’ni “Zig-zag” metodini ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish va amaliyotda sinab ko`rish

Ishning vazifalari:

- Ayollar uy kiyimlarini modellash modellarini tanlash va tavsiflash;
- Uy kiyimlarini bichish va badiiy bezashni tadqiq qilish;
- hozirgi kunda ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo`llash zarurligi haqida mulohazalar yuritish;
- «Ayollar uy kiyimlarini modellash va badiiy bezash » mavzusidagi nazariy mashg`ulotlar loyihasini o`qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalardan kichik guruhlarda ishlashga asoslangan hamkorlikda o`qitishning “Arra”, ya’ni “Zig-zag” metodi asosida ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati:

- bajarilgan tadqiqot ishlarini bevosita kasb ta’limi o`qituvchilarini tayyorlashda, kasb – hunar kollejlari ta’lim – tarbiya jarayonida qo`llanishi mumkin, shuningdek bichish – tikish kurslari o`quvchilari, mustaqil o`rganuvchilar uchun ham uslubiy ko`rsatma sifatida foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy yangiligi:

- “Ayollar uy kiyimlarini modellash va badiiy bezash” mavzusidagi nazariy mashg`ulotlar zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida loyihalanganligi;

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi xaqidagi umumiy ma'lumotlar. Malakaviy ishimiz kirish, uchta bob va xulosa qismlaridan iborat. Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va uning o'rganishning ahamiyati haqida gap boradi.

1. Tadqiqot mavzusining dolzarbligi.
2. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari.
3. Tanlangan ob'ektlar va tadqiqot usullari.
4. Ishdagi ilmiy yangiliklar va erishilgan natijalar.
5. Ishning amaliy ahamiyati.
6. Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi haqidagi umumiy ma'lumotlar.

Birinchi bobda, kasb- hunar kollejlarda o'qitilayotgan modellashtirish fanidan "Ayollar uy kiyimlarini modellashtirish va badiiy bezash" mavzusini amaliy ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Ikkinchi bobda, "Ayollar uy kiyimlarini modellashtirish va badiiy bezash" mavzusini o'qitishda pedagogik texnologiya ahamiyati berilgan.

Uchinchi bobda, mavzu bo'yicha dars ishlanma yoritib berilgan.

Xulosa qismida esa, tajribalar, taklifalar, ko'rsatmalar, tavsiyalar aniq dalillar asosida fikr bildirilgan.

1.1. Kiyim rivojlanishining tarixiy bosqichlari

Zamonaviy kiyim murakkab tizim bo`lib unga xos loyihalashning shakllanish qonuniyatlarini tushunmoq uchun, kiyimning uzoq o`tmishdagi ko`rinishi haqida ma'lumotga ega bo`lish kerak.

Kiyim hozirgi mukammal ko`rinishiga murakkab bosqichlar orqali yetib kelgan. U odamzod rivojlanishining ilk bosqichlarida iqlim ta'siridan himoya topmoq vositasi sifatida paydo bo`lgan. Kiyimning dastlabki ko`rinishlari ibtidoiy davr odamlarining qabila bo`lib yashagan vaqtiga to`g`ri kelgan. Bu davrda insonlar daraxt barglari, poxollar, hayvon terilarini tanaga beldan bog`lab yurishgan. Kiyim insonning ijtimoiy hayoti, mehnat faoliyati va ongining rivojlanishi tufayli u ham rivojlanib bordi. Kiyimning keyingi ko`rinishi turli o`simlik va hayvonot mahsulotlaridan to`qilgan oddiy gazlamalarni tanaga o`rab yurishdan iborat edi. Qadimgi Gresiyada erkaklar kiyimi ikki qismdan — xiton va gimatiydan iborat bo`lgan. Xiton — bu ichki kiyim bo`lib, jun yoki zig`ir tolali gazlamadan tayyorlangan. Erkaklar biror yumush bilan ko`chaga chiqayotganda ustki kiyim — gimatiyni kiyib olishgan. Gimatiy to`g`ri to`rtburchak shakldagi, 1,7x4 m o`lchamdagi gazlama bo`lagidan iborat bo`lib, uni yelka ustida bog`lab yoki yelkaga tashlab quyib, gavdaning tabiiy go`zalligi va harakat bemalolligini ko`rsatadigan hamda unga halaqit bermaydigan nafis taxlamalar tushirib drapirovka qilib qo`yilgan (1-rasm, a).

Ayollar kiyimi ham erkaklar kiyimiga o`xshab ikki qismdan iborat bo`lib, ular kiyimi yopiqroq va uzunroq bo`lgan. Ichki kiyimi — xiton va ustki kiyimi peplos deb atalgan. Peplos 1,5x3,5 m o`lchamdagi gazlama bo`lagidan iborat bo`lgan (1-rasm, b).

Qadimgi yunon va rimliklar bunday burmalangan kiyimlarni ustalik va yuqori did bilan bajarganlar.

Tabiatshunoslik, samo fanlarining kelib chiqishi kiyimga ham o`z ta'sirini o`tkazgan. Kiyim gazlamasi turlari paydo bo`lgan (yupqa, qalin, shoyi, ip tolali

gazlamalar). Keyinchalik kiyimda tananing qismlariga alohida gazlamalarni o`rab tayyorlash, bo`ylab biriktirish mehnat qilish uchun ancha qulaylik tug`dirgan.

Ayniqsa, ignaning kelib chiqishi kiyim qismlarini biriktirib tikishda uning takomillashishiga olib kelgan. XIII asrga kelib kiyimda yoqalar, yeng, manjetlar, cho`ntaklar, taqilmalar shakllangan. Bu vaqtga kelib kiyimning tashqi ko`rinishida, gazlamasida, bichilishida o`zgarishlar tez rivojlangan. Kiyimning gavgdaga yopishgan, etaklari hajmli, qavatli ko`rinishlari, gazlamalarning atlas, barxat, movut kabi turlari paydo bo`lgan.

Yevropa mamlakatlarida feodalizm mustahkam qaror topgan o`rta asrlar davrida maxsus estetik ideal va shunga mos kostyum harakteri tarkib topgan. Odamzot gavgdasining go`zalligidan zavqlanish nomunosib va gunoh ish hisoblanib, gavgdani qo`poldan-qo`pol, og`ir, keyinchalik esa cho`ziq shakllarga o`rab tashlangan. Tor, yuqori qismi qator-qator murakkab taxlamalardan iborat, orqa etagi juda uzun, ko`ylak juda baland konussimon boshkiyim va nihoyatda cho`ziq poyafzal bilan birga qo`shilgan holda qaddi qomat ko`rinishini o`zgartirib yuborar edi (1-rasm, v).



a



b



v

1- rasm.

O`rta asrlarda kostyum gavgdani turli vositalar (shnurlar, korsetlar) yordamida qattiq qisib, tabiiy shakldan uzoqlashtiradigan „g`ilof“ sistemasi rivoj topishini boshlab berdi.



2-rasm.

Uygʻonish davrida (XVI-XVII asrlar) estetik dunyoqarashni qayta baholash yuz berdi. Bu davrda ayollar kiyimi juda noqulay — qattiq, harakatga halaqit beradigan holatda boʻlgan. Koʻylakning yuqori lif qismi juda tor boʻlib, pastga tomon burchak shaklida tugallangan edi. Bu davrda ayollar belni xipcha qilib koʻrsatish maqsadida korsetlar kiyishgan (2-rasm).

Erkaklar kiyimi esa sipo va sodda koʻrinishda boʻlgan. Kashtali koʻylak, keng kamzul, triko va kalta shar shakliga oʻxshab ketuvchi pantolonlar kiyilgan (3-rasm).

XVIII asr (Barokko davri) larga kelib kiyimda xashamatdorlik juda avj oldi. Bu davr ayollar kiyimi shakllarining nazokatligi, murakkabligi bilan va gʻaroyib jimjimadorligi bilan farq qilgan. 3-rasm.



3-rasm

Bu davr erkaklar ichki kiyimlari kamiza, ustki kiyimi plash esa tabar deb yuritilgan. Tabarlarda yon chok boʻlmagan va bu kiyim juda eʻzozlangan. Erkaklar kiyimida ham xashamatdorlik sezilib turardi.

XX asr dunyodagi boʻlayotgan voqealar kiyimga oʻz taʼsirini oʻtkazdi.

Shu asrning 20-yillar kiyimida ixchamlashtirish, uzunligini kaltalashtirish, etaklarini toraytirish, oddiy bichimlilikni koʻrish mumkin.



4-rasm

30-40-yillardan soʻng kiyimni kiyilish oʻrniga qarab uslub boʻyicha kiyiladigan boʻldi, yaʼni klassik, sport, fantaziya uslubi va keyinchalik erkin uslub paydo boʻldi.

Kiyim-kechaklar har bir xalq tarixi bilan uzbiy bogʻliq boʻlib, moddiy-madaniy yodgorliklar ichida xalqlarning milliy oʻziga xosligini aks ettirib, etnik belgilari bilan ajralib turadi.

Kiyimlarda el-elat tarixiga borib taqaladigan an'analar, urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlar, ma'rifiy, din ba estetik shakllarning ayrim unsurlari ifodalanadi. Jamiyat turmushi, iqtisodiyoti ba siyosatida bo'layotgan o'zgarishlar bilan barabar kiyim shakllari ham o'zgarib boradi, unda xalqning moddiy ahvoli, kishilarning didi, go'zallik to'g'risidagi ideallari, xo'jalik yuritishning o'ziga xos jihatlari hamda oilaviy turmushning ba'zi tomonlari ham ko'zga yaqqol tashlanadi.

O'zbek milliy uy kiyimining ko'p asrli boy tarixi bor. Unda xalqimizning o'tmishi, iqlim sharoitimiz, turmush tarzimiz ko'zguda aks etgandek ifoda topgan. Mahalliy urf-odatlar, ayniqsa, ayollar kiyimida yaqqol seziladi. Kiyimning shakli, bichimi, ranglari ba bezaklariga ko'ra ayolning qaysi viloyatdan ekanligi, ijtimoiy mavqei, yoshi, oilaviy ahvoli to'g'risida bilib olish mumkin bo'lgan.

O'zbek ayollari kiyimi ko'ylak, lozim, mursak, to'n, peshmat, kamzul ba nimchalardan va ko'chalik kiyim – paranji-chachbondan iborat bo'lgan. Bosh kiyimlari – turli usulda o'raladigan ro'mollar, oyoq kiyimlari esa maxsi-kabush bo'lgan.

Ko'ylaklar - to'g'ri bichimli, keng ba uzun, deyarli yerga tegib turadigan, etagi biroz kengaygan, yenglari to'g'ri va uzun bo'lgan. Ayollar ko'ylaklarining turlaridan biri «*oldi ochiq ko'ylak*» bo'lib, oldi qismida belgacha to'g'ri qirqimi bo'lgan. Ko'ylaklarning oldidagi tik kesimlar maxsus to'qilgan yoki gazlamadan ishlangan bog'ichlar bilan bog'langan. Aytishlaricha bu odat Fotima onamizdan meros bo'lib, ular o'g'illari Hasan ba Husaynlar halok bo'lishganida, ularning kiyimlaridan tasma shaklida bo'laklar yirtib olib, ko'ylaklariga bog'ich qilib olgan ekanlar.

Qadimgi to'g'ri bichimli ko'ylaklar yengining tagiga boshqa rangdagi gazlamadan to'rtburchak shaklida «*hishtak*»lar tikilgan. Ba'zan boshqa rangdagi hishtaklar bolalar ko'ylaklariga ham tikilgan, bu uzoq kutilgan, «tilab olingan» farzand ma'nosini bildirgan. Qadimda yosh ayollar ba kichkina bolalar ko'ylaklarining etaklari bostirilmaganligi kabi yuqoridagi irimga ham ilohiy ma'no berilgan.

O'zbeklarda qizlarning ko'ylagi nikoh o'qilgandan so'ng, ota-onasi uyida ayollar ko'ylagiga almashtirilgan. Kuyobning uyiga kelinni yoqa o'mizi tik kesimli ko'ylakda olib borishgan. XIX – asrning 80-chi yillarida tik yoqali (*no'g'ay yoqa*) ko'ylaklar paydo bo'la boshlagan. Ba'zan bu yoqalarni «*it yoqa*» deb ham atashgan (itlarning bo'yinbog'iga o'xshatilgan).

1900-chi yillarga kelib Toshkent ayollari orasida oldi koketkali, ko'krak qismi burmalangan, «*shapang yoqa*» deb atalgan qaytarma yoqali «*ko'krakburma ko'ylak*»lar keng tarqalgan. Keksa avlod bu urfga yanada ko'proq norozi bo'lgan. SHunga qaramay «*ko'krakburma ko'ylak*»lar asta-sekin ommaviy rabishda qabul qilina boshlagan va an'anaviy to'g'ri bichimli, tik yoqali ko'ylaklar qatorida o'zbek milliy ko'ylagi sifatida hozirgacha saqlanib qolgan.

Ustki kiyimning qadimiy turlaridan *peshbon*, *mursak*, *to'n*, keyinchalik *peshmat*, *kamzul* ba *nimchalar* ma'lum. Ustki kiyimlarning XIX asrga kelib yo'q bo'lib ketgan qadimiy turlaridan biri *peshbondir*. Aytishlaricha peshbon ham mursakka o'xshab ketadigan ustki kiyim turi bo'lgan, faqat uning yoqasi ham bo'lib, yenglari nisbatan uzunroq bo'lgan ba mursakdan farqli o'laroq, uning ziylariga jiyak tikilmagan. Tadqiqotlarga ko'ra, peshbon kelinlar yopinchig'i sifatida ishlatilgan (tojikcha *peshband* – yuzini to'subchi yoki *peshbon* – yuzini asrobchi ma'nolarini anglatgan so'zlardan kelib chiqqan bo'lsa kerak.) XIX asrning boshlarida oddiy chopon yoki mursak ko'rinishida bo'lgan peshbon, asr o'rtalariga kelib ro'mol shaklini olgan.

XIX asrning 70-90 chi yillarida mursak ayollar ustki kiyimining asosiy turi hisoblangan. Har bir kelinning sepida 2-10 tadan, ba'zan 18 tagacha mursaklar bo'lgan: kundalik, kishilik, uyichilik ba h.k.z. Mursak XIX asrda ba XX asrning boshlarida unashtirish marosimida kelinga yuborilishi lozim bo'lgan kiyimlardan biri edi. Ota-onalar qizlarini birinchi bor uylariga chaqirganlarida («*challar*» marosimida) mursak kiygizishgan. Nikoh marosimida kelinga kiygizilgan mursak to'ydan keyin kelinning onasiga sobg'a qilingan. XX asrning ikkinchi o'n yilligiga kelib, mursaklar ramziy bir ma'noda qolgan, amalda uning o'rniga *kamzul*

ishlatilgan. Faqat kelinni kuyobning uyiga olib kelingandagina, unga mursak kiydirilgan ba keyinchalik uni yangalarga berilgan. XX asrda mursak kiyim sifatida o'z ma'nosini butunlay yo'qotgan ba faqatgina dafn marosimlaridagina qo'llanilgan. Ayollarning asosiy ustki kiyimi «*paranji*» hisoblangan ba XX asrning boshlarida ham kiyilgan. Paranjini ayollar ko'chaga chiqqanlarida boshlariga yopib chiqishgan. Paranji bilan birgalikda ayollar yuzlariga «*chachbon*» tutishgan (fors. *chashmband*- ko'z uchun bog'ich, ko'zni to'subchi (balki ko'zdan to'subchi), ba'zi biloyatlarda «*chibat*» deb ham atalgan. Paranji so'zi «*faroji*» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, kiyim ma'nosini bildiradi. Paranji to'n ko'rinishida bo'lib, boshga yopilib, gavgani yashirib turish uchun xizmat qilgan, yenglari o'z amaliy bazifasini yo'qotgani sababli ort tomonda bir-biriga chatib qo'yilgan. Bora-bora yenglar ingichka ba uzun shaklga kirib, soxta yeng – «*bandak*» deb atalgan. Paranji yopinish barcha yoshdagi ayollar uchun majburiy bo'lib, qiz bolalar 9 yoshdan boshlab paranji yopinishni boshlaganlar. Chachvonlar qora otning yolidan to'qilgan ba chetlariga qora rangli matodan mag'iz tikib chiqilgan. YAxshi tutilsa, 1 ta chachbon umr oxirigacha yetgan.

Shunday qilib, avval insonni iqlimiy ta'sirlardan muhofaza qilish uchun yaratilgan kiyimning, keyinchalik, turli tarixiy o'zgarishlar, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlar, milliy xususiyatlar va jamiyatdagi estetik tasavvur evolyusiyasi ta'siri ostida shakli va xillari o'zgarib, kiyim amaliy san'at obyektiga aylandi.



1.2. Zamonaviy kiyimlar turlari

Tikuvchilik sanoatida qabul qilingan kiyimlarning sinflanishi uning vazifasini aniqlab beruvchi himoya funksiyasi belgisiga ko`ra aniqlanadi. Bu belgiga ko`ra kiyimlarni 3 ta sinfga bo`lish mumkin:

- maishiy kiyimlar;
- sport kiyimlari;
- ishlab chiqarish kiyimlari.

Maishiy kiyimning vazifasi odam organizmini iqlimiy ta'sirlardan himoya qilishdir. Sport kiyimlari sportchining tanasini turli xil shikastlardan saqlash bilan birga, uning sport sohasida katta yutuqlarga erishishi uchun zamin tayyorlashdir. Ishlab chiqarishga oid kiyimlar odamni nafaqat iqlimiy ta'sirlardan, balki ishlab chiqarish ta'sirlaridan muxofaza qilishdir. Bu kiyim sinflari o`z navbatida kichik sinflarga, turlarga, guruh va kichik guruhlariga bo`linadi. Ayniqsa, maishiy kiyimlar sinfi ko`p sonli bo`lib, ular o`z navbatida foydalanish sharoitiga qarab quyidagi kichik sinflarga bo`linadi:

- ich kiyimlar;
- ko`ylak-kostyumlar;
- ust kiyimlar (palto, kalta paltolar, plashlar, kurtka va hokazo);
- korset buyumlari;
- bosh kiyimlar (kepka, furajka, beretka, shapka, shlyapa, panama va hokazo);
- turli xil qo`lqoplar.

Har bir kichik sinf o`z navbatida yana turlarga bo`linadi. Masalan, ko`ylak-kostyumli kichik sinflar guruxi quyidagi turlarga bo`linadi: pidjaklar, jaketlar, kurtkalar, jiletlar, shimlar, ko`ylaklar, yubkalar va hokazo.

Jins va yosh alomatlariga ko`ra kiyimlarni quyidagi guruhlariga: erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlariga ajratiladi. Bolalar kiyimi yoshiga ko`ra o`z navbatida quyidagilarga bo`linadi:

- chaqaloqlar kiyimi;
- yasli yoshdagi o`g`il va qiz bolalar kiyimi;
- maktabgacha yoshdagi bolalar kiyimi;
- maktab yoshdagi bolalar kiyimi;
- o`smirlar kiyimi.

Kiyimlar yilning qaysi faslida kiyilishiga qarab: yozgi, qishki, bahorgi-kuzgi kiyim turlariga bo`linadi. Bu kiyimlar qayerga kiyilishiga qarab quyidagilarga:

- kundalik kiyim;
- Ayollar uy kiyimi;
- tantanali kiyim;
- ish kiyimlariga ajratiladi.

Sport kiyimlari sinfi sport turiga qarab kichik sinflarga, yosh va jins alomatlariga qarab guruhlariga bo`linadi.

Ishlab chiqarish kiyimlari esa vazifasiga ko`ra quyidagi 3 ta kichik sinflarga bo`linadi:

- maxsus kiyimlar;
- forma kiyimlari;
- texnologik kiyimlar.

Maxsus kiyim — odamni zararli muhitdan (mexanik ta'sirlardan, past va yuqori haroratlardan, radioaktiv moddalardan, rentgen nurlaridan, kislota, ishqor, yog` va h.k. ta'sirlardan) muxofaza qiladi. Ularga kurtkalar, shimlar, kombenizonlar, plashlar va hokazolar kiradi.

Forma kiyimlari — temir yo`l ishchilari, harbiylar, aviasiya, daryo va dengiz xodimlari va boshqalar uchun tikiladi. Ularga shinel, palto, kitel, shim, kostyum, kuylak, ich kiyim va boshqalar kiradi.

Texnologik kiyim — tibbiyot va yuqori aniqlikni talab qiladigan ishlab chiqarishda odamni mehnat predmetlaridan muhofaza qilish uchun mo`ljallangan kiyimlar hisoblanadi.

Ishlab chiqarish kiyimlari ham maishiy kiyimlar singari yilning qaysi faslida kiyilishiga qarab: yozgi, qishki, bahorgi-kuzgi kiyim turlariga bo`linadi.

Mening diplom ishi mavzusi maishiy kiyimlar sinfiga kiruvchi Ayollar uy kiyimi turi hisoblanadi.

1.3. Ayollar uy kiyimlariga qo'yiladigan talablar

Kiyimni loyihalash kiyimga qo'yiladigan talablardan boshlanadi. Har qanday tikuvchilik buyumlariga aniq belgilangan talablar qo'yiladi. Kiyimga iste'molchi va ishlab chiqarish talabi qo'yiladi.

Iste'molchining talabi o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi:

- ✓ Gigiyenik talab.
- ✓ Ekspluatasion talab.
- ✓ Estetik talab.

Gigienik talablar deganda, shuni tushuniladiki, kiyimdan foydalanganda kiyim odam sog'lig'iga zarar yetkazmasligi, erkin harakatlanish vaqtida halaqit bermasligi kerak, ya'ni yozda kiyiladigan kiyimlar yengil, havo o'tkazuvchan bo'lishi, quyosh nurini qaytaruvchan bo'lishi, namni shimuvchan bo'lishi kerak. Bunda gazlama asosiy rol o'ynaydi. Kiyim tabiiy tolali gazlamalardan tikilishi talab qilinadi. Masalan: paxta, ipak, jun, zig'ir tolali gazlamalar juda yaxshi, gigiyenik hisoblanadi.

Qishki kiyimlar odam tanasidan chiqqan issiqlikni saqllovchi, yengil va qulay bo'lishi kerak. Shuning uchun qishki kiyimlar ko'pincha jun tolali gazlamalardan tikiladi. Kiyimga ishlov berishda iloji boricha yengil bo'lishiga, bichimi esa qulay bo'lishiga e'tibor berish kerak. Kuzgi va bahorgi kiyimlar esa haroratning pastligi va yog'ingarchilik ko'pligiga asoslanib ko'proq sintetik tolali gazlamalardan tikiladi.

Ekspluatasion talablar deganda, kiyimning vazifasiga va foydalanish sharoitlariga mosligi, qulayligi, chidamliligi, ishonchliligi, shaklining barqarorligi tushuniladi. Kiyilish davrida kiyim turli mexanikaviy va biologik ta'sirlarga duch keladi, nam vaqtida buraladi. Kiyim ana shu ta'sirlarga chidamli bo'lishi kerak. Bunday ta'sirlardan kiyim sitiladigan, cho'ziladigan, rangini o'zgartiradigan yoki g'ijimlanadigan bo'lsa u uzoqqa chidamaydi. Shuning uchun gazlamaning xususiyatlarini e'tiborga olgan holda kiyim modelini to'g'ri tanlash kerak, ya'ni

cho`ziluvchan, sitiluvchan, gazlamalardan kengroq burmalangan kiyimlar tikilgani ma`qul. Undan tashqari kiyimning yoqalari, yenglari, bortlari, cho`ntak og`izlari ko`p ishqalanadi. Bu yerlarga puxta texnik ishlov berish kerak. Aks holda kiyim o`z ko`rinishini yo`qotadi.

Estetik talablar deganda kiyimning moda yo`nalishiga mosligi, yangi gazlamalardan tikilganligi, yangi bezaklar ishlatilganligi iste`molchilarning estetik didlarini qondirishi tushuniladi.

Ishlab chiqarish talabi deganda buyumni korxonada ishlab chiqarish jarayonidagi yuzaga keladigan talabi tushuniladi. Tikuvchilik buyumini loyihalashda quyidagilarga ahamiyat beriladi: bir asos bo`yicha bir necha modellarni tayyorlash, kiyimga ketadigan matodan yuqori tejamkorlikda foydalaniladigan, kiyimni tikishda ishlab chiqarish korxonasi o`zida bor mexanizasiyadan va shartsharoitlardan to`liq foydalana olsun.

1.4. Ayollar uy kiyimlari uchun ishlatiladigan gazlamalar xossalari va ularga qo'yiladigan talablar

Gazlamalarning fizik (gigieik) xossalariga gigroskopligi, havo o'tkazuvchanligi, bug' o'tkazuvchanligi, suv o'tkazmasligi, ho'llanuvchanligi, chang oluvchanligi, elektrlanuvchanligi va xossalari Idradi. Fizik xossalariga qo'yiladigan talablar gazlamalarning vazifasi bilan belgilanadi va ularning tola tarkibi, tuzilishi va pardoziga bog'liq bo'ladi.

Gigroskoplik - gazlamaning atrof muhitdan (havodan) nam shimish xususiyatini belgilaydi. Gigroskoplik ($W_r\%$) havoning nisbiy namligi 100% va temperaturasi $20 \pm 2^\circ \text{C}$ bo'lganda materialning namligi

$$W = \frac{m_{100} - m_k}{m_k} 100\%$$

bunda: m_{100} - havoning namligi 100% bo'lganda 4 soat tutib turilgan material namunasining massasi; m_k - absolyut quruq namuna massasi g.

Materiallarning gigroskoplik xossalarini baholaganda ko'pincha ularning haqiqiy namlik xarakteristikasidan foydalaniladi.

Haqiqiy namlik W (%) havoning haqiqiy namligida materialdagi namlik miqdorini ko'rsatadi va quyidagi formuladan aniqlanadi:

m_k bunda: m_x - havoning haqiqiy namligidagi material namunasining massasi g;

m_k - absolyut quruq namuna massasi g.

Materiallar	$\varphi = 65$ foiz	$\varphi = 95$ foiz
	namligi	namligi
Paxta	8	20
Jun	15-17	38
Ipak	11	38
Kapron	4	7
Lavsan	0,5-1	0,8-1,2

Ayniqsa, ich kiyimlik va yozgi kiyimlik gazlamalar uchun gigroskoplilik juda muhim hisoblanadi. Bunday gazlamalar ichida zig'ir tolali gazlamalarning gigroskopliligi eng yuqori bo'ladi. Ip gazlamalar, tabiiy shoyi gazlamalar, shuningdek, viskoza gazlamalarining gigroskopliligi ham yaxshi. Sintetik, triatsetat gazlamalarning gigroskopliligi past, faqat vinol ga/lamaning gigroskopliligi ip gazlamanikiga o'xshaydi. Suv yuqtirmaydigan eritma shimdirish, plyonka va rezina qatlarni qoplash, yuvilib ketmaydigan appretlar bilan ishlov berish natijasida gazlamaning gigroskopliligi pasayadi.

Kondetsion namlik W_k - bu Gost bilan belgilangan namlik. agar $U = 65\%$

$t = 20-25^{\circ}\text{S}$

paxta - 7-8

zig'ir 13,0

jun - 17,0

moyi 12,0

viskoza - 11-12

acetat - 6,0-6,5

kapron - 4,0-4,5

nitron - 0,8-1,0

lavsan 0,4-0,5

Qabul qilishda va topshirishda to'qimachilik mahsulotlari kondicion og'irlik bilan olinadi.

$$mk = m\varphi * \frac{100 + W_k}{100 + W_e}$$

$m\varphi$ - mahsulotning og'irligi

W_e - haqiqiy namligi

M_k - kondision og'irligi

W_k - kondision namligi

Tola va iplar namlikni har hil tortib oladi, bunga qarab fizik-mexanik hossalari o'zgaradi.

Agar pahta tolasidan olingan kalava ipni suvga bir oz vaqtga solib qo'ysak, ularni mustahkamligi oshadi 18-20%.

Havo o'tkazuvchanlik - gazlamaning havo o'tkazish xususiyati, uning tola tarkibi, zichligi va pardoziga bog'liq bo'ladi. Siyrak gazlamalar havoni yaxshi o'tkazadi, zich gazlamalar, suv yuqtirmaydigan eritmalar shimdirilgan, rezinalangan gazlamalar havoni butunlay o'tkazmaydi yoki kam o'tkazadi.

Bug` o'tkazuvchanlik - gazlamaning odam tanasidan ajraladigan suv bug'larini o'tkazish xususiyati. Suv bug'lari gazlamadagi g'ovaklar orqali, shuningdek, raateriallarning gigroskopligi hisobiga o'tadi. Gazlama kiyim ostidagi havodan namni shimib, uni atrofdagi muhitga o'tkazadi. Jun gazlamalar suv bug'larini sekin o'tkazadi va boshqa gazlamalarga qaraganda kiyim ostidagi havo temperaturasini yaxshi rostlab turadi.

Kiyim modellarini yaratishda va konstruksiyasini ishlab chiqishda gazlamaning xossalarini hisobga olish lozim. Masalan, bolonya tipidagi gazlamadan plash tikishdagi plashning havo o'tkazuvchanligi va bug` o'tkazuvchanligini yaxshilash uchun kaketka tagiga bug` chiqib ketadigan to'r qo'yiladi.

Gazlamalarning **issiqni saqlash xossalari** qishki kiyimlik gazlamalar uchun ayniqsa muhimdir. Bu xossalar gazlamaning tola tarkibiga, qalinligiga, zichligiga va pardoziga bog'liq bo'ladi. Jun gazlamalarning issiqni saqlash xossalari eng pastdir.

Gazlamalarni namlikni tortish qobiliyati

1-ip gazlama

2-chit

3-kostyumli gazlama

4-paxta,viskoza(trikot)

5-trikotaj(paxtadan)

6-paltoli gazlama

Suv o'tkazmaslik - gazlamaning suv sizib kirishiga qarshi ko'rsatish xususiyati. Suv o'tkazmaslik maxsus gazlamalar (brezentlar, palatkalar, parusinalar), plashli gazlamalar, paltolik va kostyumlik, jun gazlamalar uchun ayniqsa muhimdir. Suv o'tkazmaslik gazlamaning tola tarkibiga, zichligi va pardoziga bog'liq bo'ladi.

Gazlamaning suv o'tkazmasligini oshirish va uni suv o'tkazmaydigan qilish uchun suv yuqtirmaydigan va suv o'tkazmaydigan qiluvchi pardozlar beriladi.

Chang oluvchanlik - gazlamalarning kirlanish xususiyati. U gazlama o'ngining xarakteriga, gazlamaning tola tarkibiga, zichligi va pardoziga bog'liq bo'ladi. Tarab tuk chiqarilgan jun gazlamalarning chang oluvchanligi eng yuqori bo'ladi.

Elektrlanuvchanlik - materiallarning o'z sirtidan statik elektr to'plash xususiyati. Tayyorlash va foydalanish jarayonlarida to'qimachilik materiallari albatta boshqa narsalarga tegadi va ishqalanadi. Shunda ularning sirtida elektr zaryadlar uzluksiz to'planadi va tarqaladi. Agar zaryadlarning to'planishi bilan tarqalishi orasidagi muvozanat buzilsa, material sirtida statik elektr to'planib, material elektrlanadi. Zaryadning kattaligi va ishorasi (musbat yoki manfiy) tolalarni hosil qilgan ximiyaviy tuzilishga bog'liq. To'qimachilik materiallarining elektrlanuvchanligi organizmga biologik ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Materialning havo o'tkazuvchanligi. Ma'lum bosim farqi bilan (ΔP) 1 m² yuzadan 1 s ichida o'tgan havoning miqdoriga materiallarning havo o'tkazuvchanligi deyiladi. Materiallarning havo o'tkazuvchanligi (X_p) havo o'tkazuvchanlik koeffitsienti bilan aniqlanadi:

$$X_p = \frac{V}{S \cdot t} \quad (\text{dm}^3/\text{m}^2\text{s})$$

V-havoning miqdori, dm³;

S-materialning yuzasi, m²;

t-vaqt, s.

Havoning bosim farqi ko'payishi bilan materiallarning havo o'tkazuvchanligi oshadi.

Materiallarning bug' o'tkazuvchanligi. Materiallarning yuqori namlik muhitdan kam namlik muhitga suv bug'larini o'tkazish qobiliyatiga ularning bug' o'tkazuvchanligi deyiladi.

Ichki kiyimlar odam tanasidan chiqadigan suv bug'larini, ya'ni terni yaxshi o'tkazishi kerak. Suv bug'lari gazmoldagi kovaklar orqali va materialning gigroskopligi hisobiga o'tadi. To'qima kiyim ostidagi havodan bug'larni shimib, uni atrofdagi muhitga o'tkazadi.

Materiallarning bug' o'tkazuvchanligi bug' o'tkazuvchanlik koeffitsienti bilan aniqlanadi.

$$B_h = A/St \quad (\text{mg/m}^2\text{s})$$

bu erda: A-kamaygan suv miqdori, mg;

S-namuna yuzasi, m²;

t-bug' o'tish vaqti, s.

Materiallarning bug' o'tkazuvchanligi har xil usullar bilan aniqlanadi.

Materiallarning chang o'tkazuvchanligi.

Materiallarning 1 m² yuzasidan ma'lum vaqt ichida o'tgan chang massasi bilan ifodalanadi. Materialning chang o'tkazuvchanligi, chang o'tkazuvchanlik koeffitsienti bilan aniqlanadi.

$$Ch_u = m/(ST) \quad (\text{g/m}^2\text{s})$$

bu erda: m-material orqali o'tgan chang miqdori, g;

S-material yuzasi, m²;

t-vaqt, s.

Materialning chang o'tkazuvchanligi to'qimaning kovakligiga, qalinligiga, chang zarachalarning o'lchamlariga va havodagi chang miqdoriga bog'liq. Materialning

chang o'tkazuvchanligi oddiy chang yutgich bilan aniqlanadi. Chang yutgich filtriga tahlil qilinayotgan material namunasi qo'yiladi. Chang solingan idishdan chang yutgich so'rab oladi. Materiallarning chang o'tkazuvchanligi quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$Ch_u = m / (ST) \quad (g/m^2s)$$

bu erda: m-materialdan o'tgan chang miqdori;

$$m = m_1 - (m_2 + m_3);$$

m_1 -idishdan so'rib olingan chang miqdori, g;

m_2 -materialda yig'ilib (ushlanib) qolgan chang miqdori, g;

m_3 -filtr oldida yig'ilib qolgan chang miqdori, g;

S-filtr yuzasi, m^2 ;

T-chang yutgichning ishlagan vaqti, s.

Materiallarining chang oluvchanligi.

Materiallarning chang oluvchanligi ularning kirlanish xususiyatini bildiradi. Materiallarning bu usuliyatlari tola tarkibiga, o'rilish sinfiga, to'qima zichligiga, pardoziaga bog'liq. Silliq, zich to'qimalarga kam chang yopishadi. Tukli, bo'sh to'qimlarning chang oluvchanligi yuqori bo'ladi.

Materialning suv o'tkazuvchanligi.

Materiallarning bosim ta'sirida to'qimadan suv o'tkazish qobiliyatiga ularning suv o'tkazuvchanligi suv o'tkazuvchanlik koeffitsienti bilan aniqlanadi:

$$C_p = V / ST \quad (dm^3/m^2s)$$

bu erda: V-to'qima orqali o'tgan suv miqdori, dm^3 ;

S-namunaning yuzasi, m^2 ;

T-namuna orqali suvni o'tish vaqti, s.

Materiallarning radioaktiv nurlarni o'tkazuvchanligi.

Oxirgi yillarda atom energiyasidan keng foydalanilmoqda, shuning uchun sog'ligini himoya qilish uchun to'qimachilik materiallari orqali radioaktiv nurlarini o'tish-o'tmasligini bilish katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, radioaktiv

nurlanish α , β , γ nurlaridan iborat. Radioaktiv elementlardan α nurlarining tarqalishi nisbatan kichik, ya'ni 15-20 ming km/sek. Bu nurlarni to'qimachilik material ushlab qoladi.

Materiallarning issiqlik xususiyatlari.

Materiallarning issiqlik xususiyatlariga quyidagilar kiradi.

1. Issiqlikni saqlash.
2. Issiqqa chidamliligi.
3. Sovuqqa chidamliligi/
4. Olovga chidamliligi.

1. Issiqlikni saqlash. Qishki kiyimli materiallar uchun issiqlikni saqlash xususiyati katta ahamiyatga ega.

Materiallarning issiqlikni saqlash xususiyati materialning tola tarkibiga, qalinligiga, zichligiga va pardozi bog'liq. Jun to'qimalarning issiqni saqlash xossalari eng yuqori, zig'ir tolali materiallarniki eng pastdir. Tukli va ko'p qavatli materiallarda havo qatlami bo'ladi, ular materialning issiqlikni saqlash xususiyatini yaxshilaydi.

2. Materiallarning issiqqa chidamliligi. Materiallarning issiqqa chidamliligi ikkita ko'rsatkich bilan ifodalanadi.

1. Yuqori haroratga chidamliligi.
2. Termik ishlovga chidamliligi.

Materiallarining issiqqa chidamliligi maksimal harorat bilan ifodalanadi. Bu haroratdan keyin materialning xususiyati nochorlashadi. Agar, to'qimachilik materiallariga ishlov berilganda maksimal haroradan keyin ularning tuzilishi, tarkibi bo'lsa, termik ishlovga chidamliligi deyiladi.

3 Materiallarning sovuqqa chidamliligi. Materiallar ho'l holatda takroriy muzlaganda ($t < 0^{\circ}\text{C}$) va muzdan tushganda fizikaviy-mexanikaviy xususiyatlarini saqlash qobiliyatiga sovuqqa chidamliligi deyiladi.

Materiallarning sovuqqa chidamliligi asosan tolaning gigroskopikligi va to'qimalarning suv shimuvchanligiga bog'liq. Minus haroratda agar, to'qimaning

tarkibida suv bo'lsa, ular muzlaydi, hajmi kengayadi, ko'p davrli deformatsiyadan keyin material qirqiladi.


4 Materiallarning optik xususiyatlari. Materiallarning optik xususiyatlariga ularning rangi bo'yicha ikkiga bo'linadi.

1. Issiq rang-oq, qizil, sariq. Bu ranglar gazlamalarning tashqi ko'rinishini yaxshi ko'rsatadi. Kichik nuqsonlarni aniq qilib ko'rsatadi:

2. Sovuq rang-havo rang, ko'k, binafsha rahglar kiradi. Gazlamalardagi kichik nuqsonlar bilinmaydi. Odam shaklini ixcham qilib ko'rsatadi.

Gazlamaning yaltiroqligi - materiallarning yuzasiga va o'rinishiga bog'liq. Agar gazmollar silliq bo'lsa, ular yaltiroq bo'ladi, chunki tushgan nurlar yaxshi qaytadi (satin, atlas). Agar materialning usti g'adir-budur bo'lsa, tushgan nurlar tarqab ketadi. Gazlamalarning yaltiroqligi Bleskomer FB-2 (foto-bleskomer) asbobi bilan aniqlanadi.


Materiallarning rangi, yaltiroqligi, shaffofligi, oppoqligi kabi xossalari ularning yorug'lik oqimini qaytarish, yutish, tarqatish, o'tkazish xususiyatiga qarab namoyon bo'ladi. Agar material yorug'lik oqimini to'liq qaytarsa yoki yutsa, **axromatik rang** (oqdan qoragacha): yorug'lik oqimini to'liq qaytarganda - oq rang, to'liq yutganda - qora rang, bir me'yorda chala yutganda - xar xil tuslardagi kulrang xissi paydo bo'ladi.




Spektr ranglari

Qizil	
Shami	
Sariq	
Yashil	
Moviy	
Ko'k	
Siyoh rang	

Rang tusi - rangni idrok etish




Oqishlik – xromatik ranglarni oq rangga yaqinligi bilan ifodalanadi



Kolorit - gazlamalar gulida ishtirok etadigan barcha ranglarning nisbati. Ko'pincha gazlamalar bir hil gulli qilib chiqariladi, lekin ularning har hil bo'ladi

**Oqihlik va to'yinganlik
Darajasiga ega har hil
gazlamalar**

Boshqa rang tusi



Gazlamalarning oqligi FB-2 asbobida aniqlanadi. Agar $K=1$ -oq rang bo'ladi. $K=0,0$ -qora rang bo'ladi. Oq gazlamalar uchun $K=0,85$, qora duxoba uchun $K=0,002$.

Materiallarning elektrlanuvchanligi. Materiallarni ishlab chiqarishda ularni ishlatish jarayonida har xil yuzalarda ishqalanadi, natijada materialning yuzasida statik elektr zaryadlari yig'iladi. Bu yig'ilgan zaryadlar materiallarni ishlab chiqarish texnologik jarayoniga va kiyimlardagi yig'ilgan zaryadlar odam sog'ligiga (asab, yurak, qontomir tizimlariga) salbiy ta'sir ko'rsatadi. Materiallarning elektrlanishi ularning tez kirlanishiga ham sabab bo'ladi. Elektrlangan kiyimlar odam badaniga yopishib qoladi.

Gazlamalarning mexanik xossalari.

To'qimachilik gazlamalarining mexanik xususiyatlari ularning turli kuchlar ta'siriga munisabatini ko'rsatadi. Bu kuchlar esa turlicha bo'lib, ular katta yoki kichik bo'lishi, hamda bir marta yoki qatma-qat takrirlanib ta'sir etishi mumkin. Kuchlar to'qimachilik gazlamalarining bo'yi, eni yo'nalishida yoki ularga nisbatan ma'lum miqdordagi burchak istida ta'sir etishlari mumkin.


Natijada, to'qimachilik gazlamalarda egilish, cho'zilish, buralish va hikazi dafirmatsiyalar paydi bo'ladi. Professir G.N.Kukin tasnifiga binian gazlamalarning maxanik xususiyatlari uchta sinf — yarim davrli, bir davrli va ko'p davrli xususiyatlarga bo'linadi.

«Bir davr» daganda gazlamalarning kuch ta'siri istida bo'lishi (yuklash), kuch ta'siridan bo'shashi (bo'shatish) va dam ilishi (dam) tushuniladi. 1. Yarim davrli maxanik xususiyatlar jumlasiga uzish kuchi, cho'zilishdagi uzayish, uzilishda bajarilgan ish, nisbiy uzish kuchi va bishqalar kiradi. Bu xususiyatlar gazlamaning maksimal maxanik imkiniyatini, hamda sifatlilikini ko'rsatish uchun ishlatiladi. Ularni aniqlash uchun gazlamalardan to'rtburchak tarzida namunalar, eni 50 mm, uzunligi 200 mm, ya'ni 50-200 mm qilib tayyorlanadi.

Gazlamalarning uzish kuchi — bu yuqirida aytilgan o'lchivli namunalarni uzish uchun sarf qilingan kuch. U «Pp» harfi bilan balgilanadi va

Nyutin (N) birligida ifidalanadi. Uzish kuchi gazlamalarning mustahkamligini ko`rsatadi.

Turli tuzilishdagi gazlamalarning maxanik xususiyatlarini taqislash uchun nisbiy uzish kuchi va uzilishdabajarilgan ishning silishtirma miqdori kabi ko`rsatkichlar qo`llaniladi. Nisbiy uzish kuchi P_n (mN) — gazlamalarni hisil qiluvchi tarkibiy qismiga (trikitaj gazlamalarining bitta halqa qatiriga yoki ustuniga) kaladigan uzish kuchi miqdirini ko`rsatad.



Gazlamaning cho`zilish diagrammasi

Elastik uzayish kuch ilingandan kayin asta-sakin yo`qiladi, plastik uzayish esa yo`qilmaydi. Gazlamalarning qayishqiq, elastik va plastik uzayishlari nisbati tilaviy tarkibiga big`liq bo`ladi va ularning g`ijimlanmasligiga hamda kiyimning o`z rasmini saqlay ilishiga ta'sir etadi.

1.5. Ayollar uy kiyimni loyihalashda ishlatiladigan o`lchov turlari va ularni gavdadan olish usullari

Ayollar uy kiyimi. Qulay, yaxshilab o`ylab tikilgan uy kiyimi odamga va xonadonga yarashibgina qolmay, balki kishi kayfiyat yaxshi bo`lishiga, uni ish yuritishiga ko`mak bo`ladi, atrofdagilarni ham mamnun etadi.

Ayollar uy kiyimi umuman xonadonning ichki ko`rinishiga muvofiq keladigan, odam atrofidagi narsalarga mos tushgan, monand bo`lishi kerak. Ayollar uy kiyimi — bu interer umumiy ansamblining bir qismi.

Ayollar uy kiyimi ham moda ta'sirida bo`ladi va kiyimning aynan shu vaqtga xarakterli bo`lgan silueti, uzunligi, dekori, assortimenti Ayollar uy kiyimida ham aks etadi.

Konkret shakllarni, materialar, dekorativ bezaklar, uslub echimlarini tanlashda odam shaxsiyati namoyon bo`lishi uchun Ayollar uy kiyimi katta imkoniyatlar beradi. Lekin Ayollar uy kiyimining umumiy tuzilishi uyda odamlarning batartib, ko`rkam va bardam ko`rinishiga yordam beradigan bo`lishi kerak.

Ayollar uy kiyimi nimaga mo`ljallanganligiga, yil fasliga va sutka vaqtiga qarab quyidagi guruhlarga bo`linadi:

1. Uxlash kiyimi, ertalabki va kechki yuvinish-taranish kiyimi.
2. Uyda ishlash kiyimi.
3. Mehmon kutish kiyimi.

Uxlash kiyimi — tungi ko`ylaklar, pijama poetik obraz vazifasini o`taydi. Harir, ochiq rangli, yumshoq gazlamalar, to`rlar, kashtalar, qo`yma burmalar ayol kishi qiyofasiga noziklik tiniqlik baxsh

etadi. Bichimi sodda, choklari minimal darajada kam, odatda bo`yi uzun, uni ancha



6-rasm. Ayollar uxlash kiyimlari

yengillashtirib, ixcham qilib ko`rsatadi. Kiyim assortimenti, bo`yining uzunligi odamning yoshiga, gavda tuzilishi xususiyatlari, turmush tarzi va sharoitiga qarab tanlanadi.

Uxlash kiyimi o`simlik yoki geometrik xarakterdagi siyrak, mayda gullari bor ochiq mayin tusli bo`lishi kerak, bu uning massasi kam bo`lishi talabiga to`g`ri keladi. Bezaklar-kashta, qo`yma burmalar, ikki tomonlama qo`yma burmalar, to`rlar, mag`izlar, beykalar, tasmalar, bantlar, tikma to`rlar, pechak tasmalar va boshqalar bo`ladi.



7-rasm.

Kiyimni tikishdan oldin uni loyihalash kerak. Kiyimni loyihalashda esa gavdadan aniq olingan o`lchovlar ishlatiladi. Buning uchun santimetrli lenta olib kiyim tikmoqchi bo`lgan kishi gavdasini o`lchash kerak. Bu ishni bajarayotganda odam tovonlarini juftlab, ikkala oyog`ida, gavdani tabiiy holatda bo`sh qo`yib, qo`llarini tushirib tinch turishi kerak.

O`lchayotganda tor futbolka ustidan emas, balki gavdaga yopishib turmaydigan ich kiyim, masalan kombinasiya ustidan o`lchanadi. O`lchashni boshlashdan oldin gavdada asosiy hisoblash nuqtalari — bel chizig`i va boshqalar belgilab olinadi. Buning uchun belga 70-90 sm uzunlikdagi rezinka belga gorizontal qilib ilgak yordamida biriktiriladi. O`lchayotganda santimetrli lentani tortmay va bo`shashtirmay old tomondan tutashtiriladi.

Razmer belgilari qisqartirib: aylana — A, yarim aylana — YaA, uzunlik — U, kenglik — K, balandlik — B deb yoziladi.

Gavdani o`lchashdan oldin hech narsani esdan chiqarmay to`g`ri o`lchash uchun o`lchash belgilari ro`yxati yozilgan qog`oz tayyorlab olishni maslahat beramiz.

Gavdani to'g'ri o'lchash usullari 5-rasmda ko'rsatilgan. Ularni razmer belgilarini shartli belgilanishi esa quyida yozilgan:

1. Bo'yin aylanasi (BnA). Santimetrli lenta bo'yin nuqtasi va bo'yin asosidagi nuqta orqali o'mrov nuqtasigacha aylanib o'tadi.


2. Ko'krakning birinchi aylanasi (KA₁). Santimetrli lenta gavda ort qismi bo'ylab gorizontall qo'ltiq chuqurligining oldingi va ortki burchaklariga tegib oldinda kukrak bezlari asosining ustidan o'tadi.

Ko'krakning ikkinchi aylanasi (KA₂). Santimetrli lenta kuraklarning turtib chiqqan nuqtalari bo'ylab qo'ltiq chuqurligining oldingi va ortki burchaklariga tegib oldinda ko'krakning turtib chiqqan nuqtalari bo'ylab o'tadi.

3à. Ko'krakning uchinchi aylanasi (KA₃). Santimetrli lenta kurakning turtib chiqqan nuqtalari orqali tana atrofidan qat'iyon gorizontall o'tadi.

1. Bel aylanasi (BLA). Santimetrli lenta bel chizig'i darajasida eng ingichka joydan tanani aylanib o'tadi.

2. Bo'ksa aylanasi (BkA). Santimetrli lenta tana atrofidan gorizontall aylanib lekin qorinning turtib chiqqanini hisobga olib dumbaning turtib chiqqan nuqtalari orqali o'tadi.



5-rasm. Gavdadan o'lchov olish.

3. Bilak aylanasi (BA). Panja bilakka ulanadigan joyidan aylantirib o`lchanadi.
4. Son aylanasi (SA). Sonning eng yuqori qismidan dumba chiziqlaridan gorizontal ravishda aylantirib o`lchanadi.
5. Tizza aylanasi (TA). Oyoqni 90° bukilgan holatda tizza atrofidan aylantirib o`lchanadi.
6. Gavdaning ort qismining kengligi (OrK). Gavda ort qismi bo`ylab qo`ltiq chuqurligining ortki burchaklari orasi gorizontal o`lchanadi.
7. Ko`krak kengligi 1 ( $KK_1$ ). Ko`krak bezlarining asosi ustidan qo`ltiq chuqurligining oldingi burchaklari orasi gorizontal o`lchanadi. Bu nazorat qilish o`lchovidir.
8. Ko`krak kengligi 2 ( $KK_2$ ). Santimetrli lenta ko`krak bezlarining uchlaridan qo`ltiq chuqurligining oldingi burchaklaridan hayolan pastga tomon o`tkazilgan vertikal chiziqlar orasidan o`tadi.
9. Ko`krak markazi (KM). Ko`krakni turtib chiqqan nuqtalarining orasi o`lchanadi.
10. Yelka kengligi (YelK). Bo`yin asosining nuqtasidan yelka nuqtasigacha o`lchanadi.
11. Yelka aylanasi (YelA). Qo`lning yuqori qismidan aylantirib qo`ltiq chuqurliklarining burchaklariga taqab gorizontal o`lchanadi.
12. Yeng uzunligi (YeU). Santimetrli lenta yordamida yelka nuqtasidan sal bukilgan tirsak nuqtasi orqali bilakgacha o`lchanadi. Bir vaqtda yengning tirsakkacha uzunligini ham belgilab olish kerak.
13. Gavda ort qismining belgacha uzunligi (OrbU). Santimetrli lenta bo`yin asosidan kurak nuqtasi orqali belgacha umurtqa pog`onasigacha parallel ravishda o`tadi.
14. Yelka qiyamasi uzunligi (YeQU). Bel chizig`i umurtqa chizig`i bilan kesishgan nuqtasidan yelka nuqtasigacha o`lchanadi.

15. Gavdaning old qismi belgacha uzunligi (OlbU). Santimetrli lenta bo`yin asosi nuqtasidan ko`krak bezlarining uchlarini orqali belgacha vertikal ravishda o`tadi.

16. Ko`krak balandligi (KB). Santimetrli lenta bo`yin asosi nuqtasidan ko`krak bezlarining uchlarigacha o`tadi.

17. Yeng o`mizi uzunligi (YeO`U). Bo`yin asosi yonida loyihalangan yelka chokining eng yuqori nuqtasidan qo`ltiq chuqurligining ort tomon burchaklari darajasida o`tadigan gorizontalgacha vertikal o`lchanadi.

18. Kiyim uzunligi (KU). Yettinchi bo`yin umurtqasidan istalgan uzunlik darajasigacha umurtqa bo`ylab belga yopishib turadigan kiyimlarda bel bukilishini hisobga olib o`lchanadi (kiyim uzunligi ikkita o`lchamdan ham iborat bo`lishi mumkin $KU=OrbU+YuU$).

19. Yubka uzunligi (YuU). Beldan yon tomondan istalgan uzunlik darajasigacha vertikal ravishda o`lchanadi.

20. Shim uzunligi (ShU). Beldan yon tomondan istalgan uzunlik darajasigacha vertikal ravishda o`lchanadi.

21. Bo`ksa balandligi (BkB). O`tirgan holatda bel darajasidan stulgacha yon tomon bo`ylab vertikal o`lchanadi.

Birinchi to`lali guruhidagi gavdaning o`lcham belgilarining kattaliklari 1-ildova keltirilgan. Ko`krak yarim aylanasi II ga binoan kiyim razmeri aniqlanadi. Razmerlar orasidagi farq — 2 sm bo`ladi. Masalan: 40, 42, 44, 46 va hokazo. Ayollar va erkaklar uchun 6 tadan rost mavjud bo`lib, rostlar orasidagi farq — 6 sm bo`ladi.

Ayollar uchun		Erkaklar uchun	
I	146	I	152
II	152	II	158
III	158	III	164
IV	164	IV	170
V	170	V	176
VI	176	VI	182

Ikkinchi ko'krak aylanasi (KYaA_{II}) bilan bo'ksa aylanasi (BkYaA) o'lchamlari orasidagi farq bo'yicha to'lalilik guruhi aniqlanadi. Bu farq birinchi to'lalilik guruhida 4 sm, ikkinchisida 8 sm, uchinchisida 12 sm ga teng.

Tayyor kiyim sotib olinayotganda albatta, odam o'zining bo'yini va o'lcham belgilaridan KYaA_{II} bilan BkYaA larni bilishi kerak.

Ayollar tipaviy figuralarining o'lchamlari

№	O'lchamlar nomi	Rost	Shartli belgisi	O'lchamlarning qiymati, sm							
				44	46	48	50	52	54	56	58
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
1	Bo'yin yarim aylanasi		B _n YaA	17,5	17,8	18,1	18,4	18,7	19	19,3	19,6
2	I ko'krak yarim aylanasi		KYaA _I	42,8	44,3	45,8	47,3	48,8	50,3	51,6	52,9
3	II ko'krak yarim aylanasi		KYaA _{II}	46,4	48,4	50,4	52,4	54,4	56,2	58,2	60,2
4	III ko'krak yarim aylanasi		KYaA _{III}	44	46	48	50	52	54	56	58
5	Belning yarim aylanasi		B _l YaA	34	36	38	40	42	44	46	48
6	Bo'ksayarim aylanasi		B _s YaA	49	51	53	55	57	59	61,5	64
7	Ko'krak kengligi I		KK _I	16,1	16,6	17,1	17,6	18,1	18,6	19,1	19,6
8	Ko'krak kengligi II		KK _{II}	19,3	20,3	21,3	22,3	23,3	24,3	25,3	26,3
9	Ko'krak markazi		KM	9,6	9,9	10,2	10,5	10,8	11,1	11,4	11,7
10	Orqa kengligi		OK	17,2	17,6	18	18,4	18,8	19,2	19,6	20
11	Orqaning belgacha uzunligi	I	O _{orq} Y	39,1	39,2	39,2	39,3	39,3	39,4	39,4	39,5
		II		40,2	40,3	40,4	40,4	40,5	40,5	40,5	40,6
		III		41,3	41,4	41,5	41,5	41,6	41,6	41,6	41,7
		IV		42,4	42,5	42,5	42,6	42,6	42,7	42,7	42,8
		V		43,5	43,6	43,6	43,7	43,7	43,8	43,8	43,9
12	Ko'krak balandligi	I	KB	24,6	25,5	26,4	27,3	28,2	29,1	30	30,9
		II		24,9	25,8	26,7	27,6	28,5	29,4	30,3	31,2
		III		25,2	26,1	27,0	27,9	28,8	29,7	30,6	31,5
		IV		25,2	26,4	27,3	28,2	29,1	30	30,9	31,8
		V		25,8	26,7	27,6	28,5	29,4	30,3	31,2	32,1
13	Oldning belgacha uzunligi	I	O _{old} Y	40	40,5	41	41,5	42	42,5	43	43,5
		II		41,1	41,6	42,1	42,6	43,1	43,6	44,1	44,6
		III		42,2	42,7	43,2	43,7	44,2	44,7	45,2	45,7
		IV		43,3	43,8	44,3	44,8	45,3	45,8	46,3	46,8
		V		44,4	44,9	45,4	45,9	46,4	46,9	47,4	47,9

1.6. Tungi ko`ylak andozalarini ishlab chiqish

Tungi ko'ylak loyihasining asosi gavdaning o'lcham belgilari aniqlanib konstruktiv joylarining qo'shimchalari tanlab olingandan keyingina hisoblab tuziladi.

Tungi ko`ylak chizmasini loyihalash uchun quyidagi o`lchovlar kerak bo`ladi.

BnYaA = 18 sm YeU = 8-10 sm


KYaA_{II} = 48 cm BU = 100 см

OrbU = 42 sm Ye1A = 30 sm

Qo`shimchalar hamma razmerlar uchun:

$$Q_k = 3\text{--}4 \text{ sm} \quad Q_{vel} = 5\text{--}7 \text{ sm}$$

To'g'ri burchak chizib, uning yuqori nuqtasini B_n bilan belgilab olinadi. B_n nuqtadan past tomonga kiyim uzunligi qiymati 100 sm qo'yilib E nuqta bilan belgilanadi. Ko'ylakning kengligi ko'krak yarim aylanasi ikkinchiga ko'ylak qo'shimchasini qo'shib, chiqqan natijani ikkiga bo'linadi va o'ng tomonga qo'yiladi(9-rasm):



9-rasm.

$$\text{BnBn1} = (\text{KYaAII} + \text{Qk}) : 2 = (48 + 4) : 2 = 26 \text{ sm.}$$

B_n , B_{n1} , E , E_1 nuqtalar to'g'ri to'rtburchak shaklida birlashtiriladi. B_n nuqtadan past tomonga $OrbU=42$ sm orqa bo'lakning belgacha bo'lgan uzunligini qo'yib B_1 nuqta topiladi. Bo'yin o'mizi kengligi quyidagicha topiladi:

$$B_n B_{n^2} = B_n Y_a A : 3 + 2 = 18 : 3 + 2 = 8 \text{ sm}$$

Orqa bo`lak bo`yin o`mizi chuqurligiga hamma razmerlar uchun doimiy qiymat bo`lgan 3 sm qo`yiladi, ya'ni  $B_n B_{n3} = 3$  sm. Old bo`lak bo`yin o`mizi chuqurligi esa quyidagicha topiladi:

$$B_n B_{n4} = B_n Y_a A: 3 + (4 - 10) = 18: 3 + 8 = 14 \text{ sm}$$



8-rasm.

Ravon egri chiziqlar bilan yoqa o`mizining shakli chizib olinadi: ort bo`lak uchun $B_{n2}B_{n3}$ old bo`lak uchun $B_{n2}B_{n4}$.

Taqilma minimal miqdorda tugmalar yoki bog`ichlar chatib, yechimi qulay qilib hal etiladi. Yoqalar kichik o`lchamli bo`ladi.

Ertalabki va kechki yuvinish-taranish kiyimi — bu tungi kiyim ustidan kiyiladigan xalat. Bu kiyim tungi ko`ylak yoki pijama bilan komplektda hal etiladi, shuning uchun ularning hajmi, uzunligi, yenglarinig bichig`i, yoqa o`mizining o`yig`i va yoqasining xarakteri, bezaklari, rangi bir-biriga moslangan bo`lishi kerak. Taqilmasi bir bortli yoki ikki bortli, minimal miqdorda tugma chatilgan yoki belbog`li bo`ladi. Xalatlar turli shakldagi yoqali yoki yoqasiz, cho`ntaklari chokda yoki qoplama bo`lishi mumkin. Bu kiyim tungi kiyim materialidan yoki shunga monand gazlamadan tikilishi mumkin.

Ko`pincha qalpoqcha yoki durracha zarur qo`shimcha bo`lib, bular soch turmagini avaylashga yoki yoyilgan sochni yig`ishtirib turishga xizmat qiladi.

Uyda ishlash kiyimi asosan shim, yubka, bluzka, sarafan, peshband kabilardan iborat komplektda hal qilinadi. U rasmiyat va ishchanlik xususiyatlarisiz, shakli, ko`shimchalari va ziynatlari hisobiga o`ng`aylik, bemalollik tuyg`usi hosil qiladigan bo`lishi kerak. Harakat qilishga xalaqit bermaydigan bo`lishi kerak

Buning uchun trikotaj maykalar, sviterlar bilan shim kiyiladi yoki gavgdaga yopishib turmasligi uchun qo`yimi ko`paytirilgan bluzkalar kiyiladi.


Shakl, rang, material va dekorativ bezakning monandligi hisobiga Ayollar uy kiyimi bilan peshbandning komplekt bo`lishiga erishiladi. Peshband vositasida gavgdaning ko`ngildagidek idrok yetilishiga erishsa bo`ladi. Masalan, yelka bog`larini bo`yinga yaqin bog`lab, yelkalarni toraytirib ko`rsatsa bo`ladi, burmalar




10-rasm. Ayolarning
o`timli xalati

bo'ksani kengroq, taxlamalar esa torroq qilib ko'rsatadi, ko'krakpechning kengi ko'kraklar hajmini kattalashtirsa, ensiz, cho'zig'i kichiklashtiradi.

Uy kiyimlarini modellash **Uy kiyimlari uchun xalatlar juda qulay hisoblanadi. Xalatlar bir yoqlama va ikki yoqlamali taqilmali bo'lishi mumkin.**



11-rasm. Asos chizmasiga eskizga ravishda model chiziqlarini kiritish.



12-rasm. Ikki yoqlamali taqilmali xalatning andozasi.

12-rasmida keltirilgan xalat yeng o'mizidan relief chiziqlari o'tgan, ikki yoqlamali bo'lib, bel qismida ikkita tugmachali orqali xalatning old bo'lagi bir-biriga o'tib taqiladi. Yon qismi detallarida qirqma cho'ntaklari bor. Orqa bo'lakdagi relief choklari yelka chizig'idan boshlangan. 11-rasmida ko'rsatilganidek model chiziqlari kiritiladi. 12-rasmida esa ikki yoqlamali taqilmali xalatning andozasi keltirilgan.

13-rasmida xalat-fartuk modeli keltirilgan bo'lib, u bel qismida old va orqa bo'laklarida belbog' bilan bog'langan. Bu modelda old va orqa bo'yin o'yindilaridan 13-rasmida ko'rsatilganidek kesib




13-rasm xalat-fartuk

tashlanadi. Kurak va ko`krak vitochkalari yelkadan boshlangan ovalsimon kesilgan chiziqlar orasiga olinadi. Xalat-fartuk andozasi shunday hosil qilinadiki, bunda xalatning yeng qismi 13-rasmga ko`rsatilgandek yaxlit olinadi. Rasmda gazlama buklangan holda modelning andozasini gazlamaga joylashtirish ko`rsatib berilgan. Orqa va old bo`lakda vitochkalar uzunligi o`tkazilgan oval yarim koketka shu 16 sm ga keltiriladi. Bel qismida 15—20 sm dan berilgan o`tim xalat-fartukni old va orqa tomonda belbog` bilan bog`lanishiga qulaylik yaratadi.

Kundalik kiyim. Odamning tashqi ko`rinishi, uning sanoat korxonasidagi, qishloq. xo`jaligidagi, muassasalardagi, savdo,

bo`y ipi bo`ylab buklovda



14-rasm. Xalat-fartuk modeli andozasini gazlamaga joylashtirish.

transport, maishiy xizmat sohasidagi va boshqa yerlardagi kiyimi qandayligi katta ahamiyatga ega. Kundalik kiyim — bu ham ish, ham xizmat kostyumi. Bir qancha kasbdagi kishilar ish xususiyatlari yoki ishlab chiqarish sharoiti sababli maxsus kiyim kiyadi (metallurqlar, o`t o`chiruvchilar, baliqchilar va boshqalar) yoxud boshqalardan farq qilish vositasi sifatida forma kiyim kiyadi (harbiylar va mahkamalar formasi).

Kundalik kostyumning rang echimi uning nimaga mo`ljallanganligi va uni qanday ishlatilishi xarakteriga qarab tanlanadi. Odatda, bunday echim mo`taddil, bosiq, o`xshash va o`xshash-kontrast ranglarni birga qo`shib hal qilinadi, kontrastlar asosan rang tuslarining oqishliklari yoki ikkita yaqin ranglar o`rtasida bo`ladi.




15-rasm. Kundalik ko`ylak

Materialni kiyim nimaga mo'ljallanganiga, estetika talablariga (plastik xususiyatlar, rang, rasmga) qarabgina emas, balki mehnatning xususiyati belgilab beradigan gigiyenik talablariga ham qarab tanlanadi.


Dekorativ bezaklar, kompozision markaz qayerda bo'lishi kiyimning funksional vazifasiga bog'lab hal etiladi. ko'ylak.

Qo'shimchalar xarakterining qandayligi shu qo'shimchalar nimaga mo'ljallanganiga qarab belgilanib, u ham ishbop kostyumni umumiy xarakteriga bo'ysundirilgan bo'ladi.


Kundalik kiyimlarni modellashtirish. 15-rasmda ko'rsatilgan kundalik ko'ylakni bo'lajak onalarga ham tavsiya qilish mumkin. Ko'ylak etak qismiga kengayib borgan, old bo'lakda qo'yim taqilmasi bor. Bu ko'ylak andozasini hosil qilish uchun 16-rasmda ko'rsatilganidek, asos chizmasiga o'zgartirish kerak. 17-18 rasmlarda esa ko'ylakning andozalari komplekti to'liq ko'rsatilgan. 19 va 20 rasmlarda yana bitta kundalik ko'ylakni modellashtirish jarayoni ko'rsatilgan.




16-rasm. Orqa, old bo'laklar va boshqa detal andozalarini hosil qilish.



17-rasm. Old bo`lak andozasini hosil qilish.



18-rasm. Orqa bo`lak va boshqa detal andozalarini hosil qilish.




Zamonaviy milliy liboslar. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib o'zbek ayollari kostyumi zamonga, yangicha turmush tarziga, zamonaviy modaga muvofiq rivojlanishda davom etdi. Uzun yaxlit, koketkali ko'ylak milliy mansublik simvoli bo'lgani uchungina emas, balki, asosan xalq kostyumida iqlim xususiyatlariga, tevarak-atrofdagi tabiatga va turmush tarziga to'g'ri keladigan rasional shakllar, bichimlar bir necha asrlardan beri saralanib kelgani uchun saqlanib qoldi. Ayollar ko'ylagidagi yorqin ranglar mutanosibligi o'lkamiz tabiatiga monand tushgan bo'lib, shaklning bermalol tushib turishi jazirama quruq iqlim sharoitiga mos keladi (bunda kiyim tagi qatlamidagi tabiiy ventilyasiyasi yaxshi bo'ladi).

Moda „shabadasi“ ayollarning an'anaviy ko'ylagiga hech ayamay zamona o'zgarishlarini kiritib boradi.

Koketkalarining uzunligi va shakli (oval, to`g`ri to`rtburchak, burchak), ko`ylakdagi uzunlik va shakl (to`g`ri to`rtburchak, trapesiyasimon) va shakl hosil qilish prinsiplari (burmalar, taxlamalar, plisse, gofre, qiya bichiq, klyosh, qiyiq

bo`laklar), yeng uzunligi, shakli va bichimi (o`tgazma, reglan, yaxlit bichilgan) o`zgarib bormoqda; yoqa turlarining (inglizcha klassik, sholsimon, tik, qaytarma, yaxlit bichilgan va hokazo) va yoqa o`mizining („u“simon, oval, kare, „qayiqcha“ va boshqalar nihoyatda ko`p xilmaxilligi ko`zga tashlanadi. Ishlatiladigan dekorativ bezak turlari ham turli-tuman: kashta, qo`yma burma, kant va boshqalar.



21-rasm. O`zbekcha ko`ylak modellari.

Qiziqarli yangiliklardan biri — taxlama burma sifatida ko`ylak pastki tomonining yuqori qirqimini ozroq-ozroq terib qo`yilishi (21-rasm).

Ishlatiladigan materiallar turi, ulardagi rang boyligi va naqshlar echimi butunlay moda yo`nalishiga qarab hal qilinadi. Lekin an'anaviy xonatlas hamisha bir xilda mashhur bo`lib keladi. Uning naqsh motivi ham zamon, voqelik, davr ta'sirida o`zgarib turadi.


Xonatlasdan tikilgan liboslarning ustida o`tkazilgan tadqiqotlarning ko`rsatishicha, undagi rapportning kattaligi, rasmlarning aniq-ravshanligi va qat'iyligi bu kiyimni ko`p bo`laklardan tikishga imkon bermaydi, uning shakli aniq, to`g`ri to`rtburchakka yaqin bo`lishi kerak.

Rang tuslarining turlari va naqsh-gul echimlari boy bo`lgani sababli ko`ylak kompozisiyasiga bezak tariqasida boshqa materiallar, kashta gullar, hatto lyureks (yaltiroq qoplamali ingichka iplar) aralashtirish tavsiya etilmaydi.

1.7. Ayollar uy kiyimini badiiy bezash



22- rasm. Munchoqlar bilan bezatilgan milliy ko'ylak modellari



23- rasm. Bufflar va burmalar bilan bezatilgan milliy ko'ylak modellari..

22, 23- rasmlarda milliy ko'ylak koketkalarining turli tuman ko'rinishdagi yoqa o'mizlari va bichimlarini tavsiya etamiz. Bu turli ko'rinishdagi koketkalarni kishi gavdasi, yoshi, gazlama turiga binoan hamda, kiyilish joyiga qarab tanlanishi shart. Ko'pincha yosh xotin qizlarimiz murakkab, bejirim bichimdagi koketka turlarini tanlashadi. Chunki yoshlar xar doim go'zallikka, qiziqarli yechimlarga ega bo'lgan kiyimlarni kiyimlarni tanlashadi. Bu ularni qiziqqonligidan, yoshligidan dalolat beradi.



24-rasm. Kashta choklar bilan bezatilgan milliy ko'ylak modellari



25-rasm. Kashta va burmalar bilan bezatilgan
milliy ko'ylak modellari

Agar gazlama elastik, cho'zilubchan bo'lsa koketka o'tkir burchakli bo'lmasligi kerak. Chunki unga qanchalik qotirmalik gazlama yopishtirilmasin, burchaklari egilib chiroyli ko'rinish bermaydi. Qattiq, mustahkam o'rinishdagi gazlamalarga esa qanchalik koketka murakkab bichimda bo'lmasin chiroyli turadi. Bunga misol qilib atlas, adras, beqasam, krep kabi gazlamalarni misol qilish mumkin.



22- rasmlarda biserlar (munchoqlar) bilan bezatilgan milliy ko'ylak modellari ko'rsatilgan bo'lib, bu modellar bichimi yuzasidan bir biriga o'xshasada, bezak ko'rinishlari, yoqa o'mizlari o'yiqlarining turli tumanligi bilan fark qiladi. Ushbu modellarimizni yosh kelinlarimizga, o'rta yoshli ayollarimizga tavsiya qilamiz.

24,25- rasmda esa koketkalari turli bichimda bo'lgan, buflar bilan bezatilgan milliy ko'ylak modellari berilgan. Bu modellar asosan yosh qizlarimiz, yosh kelinlarimizga mos keladi. Ularni shifon, krepdishin, shoyi kabi gazlamalardan tikish mumkin. Bezak buflarni munchoqlar bilan xam bezash mumkin. Agar ko'ylak kundalikda kiyiladigan bo'lsa, bezak toshlarni kamroq ishlatgan ma'qul.

Xozirgi kunda kashta choklar bilan bezatilgan milliy ko'ylaklarimiz yana urf bo'lmoqda. Ayniqsa kelinlarimiz seplarida kashta chok bilan bezatilgan ko'ylaklarni juda ko'p uchratish mumkin. Kashta chok oralarini biserlar bilan to'ldirib tikilsa kashta choklar yanada chiroyli, ko'rkam va jozibador ko'rinishga ega bo'ladi. Milliy ko'ylaklarimizni burmalar, tesmalar, ryushlar bilan ham bezab tikish mumkin. 23-rasmda quyma burmali ko'ylak namunalari keltirilgan.

Quyma burmali ko'ylaklarni ko'pincha yosh qizlarimiz va kelinchaklarimizga tavsiya qilamiz. Yoshi katta, to'la gavdali ayollarimiz esa burmali ko'ylaklarni kiymaganlari ma'qul. Chunki burmalar kishi gavdasini bo'rttirib ko'rsatadi.

Burma turlari ham gazlama turiga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Undan tashqari xozirgi kunda ko'ylaklar uchun turli tuman tayyor bezak elementlarini dukonlarimizda ko'plab uchratishimiz mumkin. Faqatgina ularni gazlamaga, kishi gavdasi va yoshiga, kiyim turiga qarab tanlashimiz lozim deb o'ylaymiz.

Chiroyli kiyinishni har kim ham xohlaydi. Lekin chiroyli kiyinaman degan xotin qizlarimiz me'yorni unutmasliklari, ko'ylak uchun bichim va bezak tanlashda modeler va dizaynerlar maslahatiga rioya qilishlari lozim.

2.1. "Ayollar uy kiyimlarini modellash va badiiy bezash" mavzusini o`qitishda pedagogik texnologiya konsepsiyasi va uning ilmiy asoslari

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalaridan samarali foydalanish har bir o'qituvchining asosiy vazifasi bo'lib qolmoqda.

Bugun malakatimiz istiqloli sharofati tufayli barcha fan sohalarini rivojlangan davlatlarda to'plangan tajribalar asosida tahlil qilish va yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud. Umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o'rganish va hayotimizga tatbiq etish davri keldi. Milliy dasturda ta'kidlanganidek, yaqin kelajakda «kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlikning xalqaro huquqiy bazasi yaratiladi, xalqaro hamkorlikning ustivor yo'nalishlari ro'yobga chiqariladi, xalqaro ta'lim tizimlari rivojlantiriladi» .

Bu faslda biz pedagogik texnologiya nazariyasining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixiga nazar tashlaymiz.

30-yillarda «pedagogik texnika» tushunchasi maxsus adabiyotlarda paydo bo'ldi va u o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga yo'naltirilgan usul va vositalar yig'indisi sifatida qaraldi. Shuningdek, bu davrda PT deb o'quv va laboratoriya jihozlari bilan muomala qilishni uddalash, ko'rgazmali qurollardan foydalanish tushunildi.

40-50-yillarda o'quv jarayoniga o'qitishning texnik vositalarini joriy etish davri boshlandi. Ayniqsa kino, radio, nazorat vositalari, ulardan foydalanish metodikasi PTga tenglashtirildi.

60-yillarning o'rtalarida bu tushuncha mazmuni chet el pedagogik nashrlarda keng muhokamaga tortildi. 1961 yildan boshlab AQShda «Pedagogik texnologiya» (Educational Technol-ogy), 1964 yildan Angliyada «Pedagogik texnologiya va dasturli ta'lim» (Technology and programmed Learning). Yaponiyada esa 1965 yildan «Pedagogik texnologiya» (Educational Technology) jurnallari chop etila boshlandi. 1971 yilda xudi shu nomli jurnal Italiyada chiqarila boshlandi.

Shu kabi ma'lumotlarni keltirishni g'arb davlatlari misolida yana ham davom ettirish mumkin, biroq 1 – chizma bunga ehtiyoj qoldirmaydi. Yuqoridagilarning o'ziyoq PT pedagogika nazariyasi va amaliyoti sohasidagi alohida hodisa sifatida diqqat markazda turganligini, 60-yillardan boshlab chet ellarda yangi yo'nalish sifatida shakllanganligini ta'kidlab turibdi.

Pedagogik texnologiyaning ilmiy asoslari.

O'zbekistonda ta'lim – tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri “shaxs manfaati va ta'lim ustivorligi”dir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli ta'limning yangi modeli yaratildi.

1-Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan bu modelni amalga oshirish bilan hayotimiz jabhalarida ro'y beradigan “portlash effekti” natijalari ro'yi-rost ko'rsatib berildi, ya'ni:

-ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir qiladi va natijada mamlakatimizdagi mavjud muhit butunlay o'zgaradi.;

- insonning hayotdan o'z o'rnini topish jarayoni tezlashadi;

- jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi;

- jamiyatimizning potensial kuchlarini ro'yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi;

- fuqarolik jamiyati qurishni ta'minlaydi, model vositasida dunyodan munosib o'rin olishga, o'zbek nomini yanada keng yoyib tarannum etishga erishiladi.

«Portlash effekti» sari shijoat bilan qadam tashlash, yo'llarda uchraydigan qiyinchiliklarni bosqichma-bosqich va izchil hal etish masalalari nafaqat pedagog nazariyachi va amaliyotchilarni junbushga keltiradi, balki jamiyatimizni to'liq pedagoglashtirish muammosini ijtimoiy buyurtma sifatida keltirib chiqaradi. Demak, jamiyatimizning har bir fuqarosini tarbiya asoslari bilan tanishtirish, yosh avlodni barkamol inson qilib voyaga yetkazish jarayonini yangi pedagogik «qurol» va vositalar bilan ta'minlash davr taqazosidir.

Pedagogik texnologiya (PT) – shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida 3 – ming yillikda davlatimiz ta'lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, o'qituvchi

faoliyati yangilanadi, talaba yoshlarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg`ulari tizimli ravishda shakllantiriladi.

Pedagogik texnologiya – bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir.

O'qitish texnologiyasi – o'quv mashg'ulotining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, kutiladigan natijalarni oldindan aniqlashtirish, har bir bosqichda qo'llaniladigan shakl, metod va vositalarni oqilona tanlab olish, o'qituvchi va o'quvchining vazifalarnin oydinlashtirishga qaratilgan algoritmik ketma-ketlik.

Tarbiya texnologiyasi – tarbiya natijalariga asoslanib, tarbiyaning maqsad va vazifalarini oydinlashtirish, tarbiya jarayonining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, tarbiyaning shakl, metod va vositalarini aniq belgilab olishga qaratilgan tizimli jarayon.

Interfaol metod – o'quv jarayoning tarkibiy qismi bo'lib, bir vaqtning o'zida ham o'qituvchi, ham o'quvchini faollashtirishga yo'naltirilgan o'qitish usullari majmui.

Grafik organayzerlar – o'quv jarayonida qo'yilgan maqsadga erishishda yordam beruvchi chizma, jadval, grafiklar majmui. Agar grafik organayzerlarni o'qituvchi tayyor, to'ldirilgan holda qo'llasa, vosita vazifasini, o'quvchilarning mashg'ulot mavzusiga doir bilimlarini mustahkamlash va fikrlashini rivojlantirish maqsadida ishlatilsa, metod vazifasini bajaradi.

2.2. "Ayollar uy kiyimlarini modellash va badiiy bezash" mavzusini o`qitishda qo`llaniladigan pedagogik texnologiya turlari

Pedagogik texnologiyalar uzluksiz ta'lim turlari, ta'lim sohalari hamda ayrim belgilari bo'yicha turlarga ajratiladi.

Uzluksiz ta'lim turlari bo'yicha maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, tayanch ta'lim, maktabdan tashqari-qo'shimcha ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'limi pedagogik texnologiyalariga bo'linadi. Shu bilan birga, ta'lim sohalari bo'yicha ona tili, xorijiy tillar, adabiyot, ijtimoiy, tabiiy, aniq fanlar, san'at, sport, texnika, texnologiya, amaliy fanlar, kasb-hunarlar, maxsus ta'lim pedagogik texnologiyalari mavjud.

Hozirda mavjud bo'lgan pedagogik texnologiyalarni bir qancha belgilariga qarab turlarga ajratiladi. Bu belgilar haqida gapirishdan oldin shuni eslatib o'tishimiz kerakki, pedagogik texnologiya doimo kompleks xarakterga ega bo'lib, u faqat bittagina omildan, metoddan, tamoildan foydalanmaydi. Ya'ni quyida keltiriladigan turlarigagina xos bo'lgan monotexnologiyalar aslida mavjud emas. Lekin har bir pedagogik texnologiyada asosiy e'tibor ta'lim jarayonining u yoki bu tomoniga qaratilishi natijasida ularni shu belgilari bo'yicha turlarga ajratiladi.

Bilish faoliyatini boshqarish bo'yicha pedagogik texnologiyalar turlari:

- Klassik ma'ruza;
- Texnika vositalari yordamida o`qitish;
- Maslahatchilik tizimi;
- Darslik bo'yicha o`qitish;
- Kichik guruhlar tizimi;
- Kompyuter yordamida o`qitish
- Repetitorlik tizimi;
- Dasturlashtiriladigan boshqaruv.

**Ta'lim oluvchiga yondashuv turi bo'yicha pedagogik texnologiyalar
quyidagicha nomlanadi:**

- Avtoritar;
- Didaktik yo'naltirilgan;
- Ijtimoiy yo'naltirilgan;
- Antropologik yo'naltirilgan;
- Pedagogik yo'naltirilgan;
- Shaxsga yo'naltirilgan;
- Insonparvarlikka va shaxsga yo'naltirilgan;
- Hamkorlik texnologiyalariga yo'naltirilgan;
- Erkin tarbiyaga yo'naltirilgan;
- Ezoterik ta'lim va tarbiyaga yo'naltirilgan.

**Qo'llaniladigan asosiy metod bo'yicha pedagogik texnologiyalar quyidagi
turlarga ajratiladi:**

- Dogmatik, reproduktiv metod ;
- Tushuntirish, ko'rgazmali;
- Rivojlantiruvchi ta'lim;
- Muammoli, izlanishli;
- Ijodiy metod;
- Dasturlashtirilgan ta'lim metodi ;
- Dialogli metod;
- O'yin metodi ;
- O'z-o'zini rivojlantiruvchi ta'lim metodi;
- Axborotli (kompyuterli) ta'lim metodi

Tashkiliy shakllariga ko`ra pedagogik texnologiyalar quyidagi turlarga bo`linadi:

- Hozirgi an'anaviy ta'lim;
- Shaxsga yo`naltirilgan pedagogik jarayon asosidagi pedagogik texnologiyalar;
- O`quvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish asosidagi pedagogik texnologiyalar;
- O`quv jarayonini boshqarish va tashkil qilish samaradorligi asosidagi pedagogik texnologiyalar;
- Materialni didaktik takomillashtirish va rekonstruksiyalash asosidagi pedagogik texnologiyalar;
- Xususiy fanlar pedagogik texnologiyalari;
- Alternativ texnologiyalar;
- Tabiatga moslashtirilgan texnologiyalar;
- Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari;
- Mualliflik maktablari pedagogik texnologiyalari;
- Texnologiyalarni loyihalash va o`zlashtirish texnologiyalari.

Bundan tashqari shaxsning xususiyat va sifatleri tarkibiga yo`naltirilganlik bo`yicha pedagogik texnologiyalar quyidagi turlarga ajratiladi:

- Fanlar bo`yicha bilim, ko`nikmalarni shakllantirishga yo`naltirilgan – axborot texnologiyalar;
- Aqliy faoliyat usullarini shakllantirishga yo`naltirilgan –operatsion texnologiyalari;
- Estetik va axloqiy munosabatlar sohasini shakllantirishga yo`naltirilgan emotsional-badiiy va emotsional axloqiy texnologiyalar;
 - Shaxsning o`z-o`zini rivojlantirish mexanizmlarini shakllantirishga yo`naltirilgan o`z-o`zini rivojlantirish texnologiyalari;

- Ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo`naltirilgan –evristik texnologiyalar;
- Amaliy faoliyat sohasini rivojlantirishga yo`naltirilgan amaliy texnologiyalar.

Pedagogik texnologiyalarni quyidagi belgilariga ko`ra tasnif qilinadi:

- Qo`llash darajasiga ko`ra;
- Falsafiy asosiga ko`ra;
- Asosiy rivojlantiruvchi omiliga bo`yicha;
- O`zlashtirish konsepsiyasi bo`yicha;
- Shaxsiy belgi-sifatlariga ko`ra yo`nalganligi bo`yicha;
- Mazmun xususiyatlari bo`yicha ;
- Boshqaruv turiga bo`yicha;
- Bolaga yondashuv bo`yicha;
- Ko`p qo`llanilgan metodlari bo`yicha;
- Ta'lim oluvchilar toifalari bo`yicha.

I.A.Allayorov ta'lim-tarbiya ishining mazmuniy va jarayoniy tomonlarini yaxlit va uyg'unlikda tadqiq etib, “faol ta'limning didaktik asoslari – bu jarayon ishtirokchilarining ongli, oqilona munosabatlarini o`rnatilishi va yuqori sifat hamda samaradorlikni ta'minlanishi” deb talqin etgan.

Faol bilish – deb ko`rsatadi A.M. Matyushkin - muntazam ravishda, birin-ketin topshiriqlar berish, muammoli vaziyatlar hosil qilish natijasida yuzaga keladi. Modomiki, faollik onglilik natijasida vujudga kelar ekan, u maxsus fanlarni o`rganish mazmuni, shakli, metod va vositalarini muvofiqlashtirishni ham taqozo etadi. Faollik darajasini belgilashda materialning amaliy jihatdan muhimligi, murakkablik darajasi hisobga olinishi lozim.

Lerner faollikni mustaqillikning shart-sharoiti sifatida qaraydi, chunki shaxs faol bo'lmasdan mustaqil bo'la olmaydi. Muallif faollik va mustaqillik darajalari sifatida "oddiy faollik", "haqiqiy mustaqillik" terminlaridan foydalangan.

Fikrlash faoliyati o'z navbatida ma'lum shart-sharoit yaratilishini taqozo etadi. Demak, fikrlash uchun zarur bo'lgan oqilona shart-sharoit yaratilsa, tahsil oluvchi faol faoliyat ko'rsata olishi mumkin bo'ladi.

O'qituvchi mashg'ulot jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish uchun murakkablik darajasidan kelib chiqib o'quv materialini turli shakllari ishlab chiqishi kerak. Maxsus fanlarni o'rganishda faollikning quyidagi darajalaridan foydalanilgan.

1. *Faollikning birinchi darajasi* – o'quvchilarning avval o'zlashtirgan bilimlarini qayta takrorlashi, uni xotirada tiklashi hamda o'qituvchining bevosita rahbarligi va ko'rsatmalari asosida unga ergashib bajaradigan ishlari yoki berilgan namunaga qarab aynan bajaradigan topshiriqlari jarayonida namoyon bo'ladi. Chunki, o'quvchilarning o'tilgan nazariy materialini eslashi, unga mos keladigan ishlab chiqarish mazmunidagi masalalarini namunaga qarab yechimini topish hatti-harakatlarini qayta xotirlashga xizmat qiladi

2. *Faollikning ikkinchi darajasi* – o'rganilayotgan obyekt yoki jarayonning mohiyatini tushunishni, ma'lum ma'noda ijodiy fikrlash elementlarini taqozo etadi. Faollikning bunday darajasi o'rganilayotgan obyekt va jarayonlardagi o'xshashlik va farqli jihatlarini aniqlash, o'zlashtirilgan bilimlarni ma'lum o'zgartirilgan holat va vaziyatlarda qo'llanishini ko'zda tutadi.

3. *Faollikning uchinchi darajasi* – ijodiy xarakterdagi hatti-harakatlarni talab etadi. Ko'zlangan o'quv maqsadga erishish yo'lida ijodiy faoliyatni ko'rsatadi. Qisman izlanish xarakteridagi faoliyat to'la ijodiy xarakterga ega bo'ladi. Faollikning bu darajasi egallangan bilimlar tizimli, chuqur va puxta bo'lib, ulardan istalgan sharoitda foydalanish mumkin.

Shunday qilib, faollik o'quvchi faoliyatining muhim jihati hisoblanadi. Faollik darajasi birinchidan, o'quvchilarning o'quv materialini o'rganishga qiziqish, ularda

mustaqillik kabi xususiyatlarini qanday darajada mavjudligi bilan belgilansa, ikkinchidan, o'qituvchi tomonidan ta'lim-tarbiya jarayonini faollashtirish maqsadida yaratilgan shart-sharoit, tanlangan shakl, faol metod va didaktik vositalarga bog'liq bo'ladi.

Ko'pgina olimlar tomonidan kasb-hunar kollejlari maxsus fanlarni modulli texnologiya asosida o'qitishda faol usullarni qo'llash imkoniyatlari o'rganilgan va amalda qo'llash metodikalari ishlab chiqilgan.

Kasb-hunar kollejlari maxsus fanlarni loyixa usulini qo'llab o'qitish metodikasi tadqiq qilingan.

Faol ta'lim metodlarining ijobiy tomonlari bilan bir qatorda ayrim kamchiliklari ham aniqlangan. Bularga an'anaviy ta'lim metodlariga nisbatan vaqtning ko'p talab qilishi, o'qituvchidan alohida tayyorgarlik va pedagogik mahorati talab qilishi kiradi.

Kasb-hunar kollejlari maxsus fanlarni o'rganishda faollikni ta'minlashdan oldin o'quvchilarning bilim darajasi, uni o'zlashtirganligi hamda egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish ko'nikma va malakalarni tahlil qilish zaruriyati tug'iladi. Chunki egallangan bilimlarni har tomonlama tahlil qilmay turib, o'quvchilarning faol faoliyat ko'rsatish darajasi haqida fikr yuritib bo'lmaydi.

Faollik- ta'lim sharoitida o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ish - harakat usullarini turli ishlab chiqarish vaziyatlarida qo'llanishga imkon beradi.

Kasb -hunar ta'limida amaliy ko'nikmalar o'rganish, asosan mehnatni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi, chunki bunday ta'lim qismlari kasbiy-mantiqiy emas, balki xarakteratlarga yo'nalgan tarzda kechadi. Ko'pincha o'z kasbini, sohasini a'lo darajada eghallagan mutahassislardan misol uchun biror ish tartibini tushuntirib berish so'ralsa, ular ko'pincha sergaklik bilan tushuntirishni boshlaydilar, ikkinchi darajali masalalarga to'htalib, qisqa va lo'nda tushuntirib bera olmaydilar.

Kasb-hunar kollejlari o'tkazilgan pedagogik tajribalar asosida maxsus fanlarni o'qitishda o'quvchilarda zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarni

shakillantirish hamda ularning mustaqil va ijodiy ishlar faoliyatini rivojlantirish uchun quyidagi faol usullardan foydalanish yuqori samara berishi aniqlandi.

Motivasiya usuli.

Maxsus fanlarda nazariy mashg'ulotlar o'quvchilar bilan qiziqarli, hattoki, darsga taaluqli bo'lmagan mavzular to'g'risidagi suhbat bilan boshlanishi lozim. Iloji bo'lsa, darsga bog'liq bo'lgan mavzular yuzasidan suhbatni boshlash kerak. Masalan, qiziqarli kashfiyot yoki yangilik tanlanishi mumkin. Bularning barchasi birinchi dars mobaynida o'quvchilarning kayfiyatiga, shu sihaga qiziqishiga yoki keyingi darslarda o'quvchilar o'rganadigan faniga e'tiborini qaratishga yordam beradi.

Agar, dars birinchi bor yangi o'quv guruhida o'tilayotgan bo'lsa, o'qituvchi qisqacha o'zini tanishtirib o'tib, o'quvchilarga ham o'zlarini tanishtirish imkoniyatini berish kerak. Bu o'quvchilarda ishinch tug'diradi, o'quvchilar o'zlariga bildirilayotgan hurmatni his qiladilar. Nazariy fan maqsadini bayon etish orqali motivasiya va muayyan mavzuga kirish amalga oshiriladi. Intrinli (ichki) va ekstrinli (tashqi) motivasiya uchun sabab va argumentlar topishga harakat qilish lozim. Motivasiya qilish bilan o'qish va o'rganishga bo'lgan tayyorlik uchun shart-sharoit yaratiladi.

So'ngra o'qituvchi o'quvchilarga maxsus fan bo'yicha yangi o'quv materialni tushuntiradi, qisqa ma'ruzalar o'qiydi, munozaralar uyushtiradi, o'quv suhbatlari, o'yin – mashg'ulotlari va muammolarni hal qilish haqida suhbatlar o'tkazadi. Keyingi darslarda yangi mavzuni boshlashdan avval o'tilgan mavzular qisqacha, umumlashtirilgan holda qaytarilishi kerak.

O'quvchilarga mavzularga mos tarqatma materiallar tarqatilishi lozim. Bu o'quv jarayonini yengillashtiradi. Mavzuga kirilmay turib, tarqatma materiallar tarqatilmaydi. Ularni mavzuga monand ravishda birin-ketin tarqatish, ularni o'qib chiqish uchun yetarli daqiqalar berish va o'quvchilar e'tiborini axborotga qaratish uchun ovoz chiqarib o'qitish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'quvchilarga tafakkur qilish va qayta ishlash imkoniyatini yaratuvchi topshiriqlar o'zlashtirilgan bilimlarni faol ravishda qayta ishlab borish uchun zarurdir. Ular bilimlarni qabul qilishning nisbiy passiv fazasidan so'ng aktiv faza kelishi uchun imkoniyat yaratib beradi. Guruhlarda ishlash yoki mustaqil ravishda topshiriqlarni yechish va natijalarni taqdim etish samarali o'qitish usullari hisoblanadi.

Guruhiy ishlash. Maxsus fanlar o'qitish jarayonida guruh bo'lib ishlash shaklining ahamiyati tobora oshib bormoqda. Maxsus fanlar bo'yicha nazariy bilimlarni berishda va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda guruhli ishlar olib borilishi mumkin. Bu borada barcha talabalar bir necha kichikroq o'quv guruhlariga taqsimlanadi va bu guruhlar mustaqil ishlaydilar. Kichik guruhlarning ish natijalari keyinroq butun guruh doirasida muhokama qilinishi mumkin.

Guruhiy ishda berilgan topshiriqlar puxtalik bilan o'ylab chiqilgan bo'lishi kerak, chunki ularda talabalar orasida muloqot va hamkorlik qobiliyatini rivojlantirish kabi maqsadlar bor. Guruhiy ish uchun quyidagi o'qitish shakllari mos keladi:

1. Ustaxona shaklidagi guruhli ish:

Ustaxonada bajariladigan amaliy mashg'ulot doirasidagi vaziyatga o'xshash kelajak faoliyat bo'yicha stenariylar va muammolar ishlab chiqiladi. Buning uchun dolzarb muammolar o'rganib chiqilishi kerak. Bu muammolar o'quvchilarning dastlabki bilimlar darajasini inobatga olgan holda va ijodiy fikrlash bilan bog'liq holda talabalarni yechimlarga undashlari kerak.

2. "Reja o'yini" shaklidagi guruhli ish:

"Reja o'yinlari" belgilangan vaziyatda turli xil yechimlarni sinab ko'rish imkonini beradi. O'quvchilar bunda muammoga bo'lgan har xil ta'sirlar natijaga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Buning uchun sabab va oqibat bir-biri bilan bog'liq ravishda ko'rilishi kerak. Masalan, har xil kompyuter dasturlari orqali korxona va firmalar faoliyati sohasidagi masalalarni "o'yin orqali" sinab ko'rish

imkoniyatini yaratadi. O'quvchilar o'yin jarayonida o'zaro raqobat munosabatida bo'ladilar.

3. Loyiha shaklidagi guruhii ish: Loyixaviy ish bir loyixani aniq belgilangan chegara doirasida ishlab chiqishni talab qiladi. Loyiha shaklidagi guruhii ish juda ham katta ahamiyatga ega, chunki bunda vazifalar topshiriqlar majmuasi bo'yicha aniq taqsimlanishi kerak bo'ladi.

Munozara usuli

Jarayonda yuzaga keladigan bahslashish fikrlashning ifodasi bo'libgina qolmay, shakllanib kelayotgan shaxs o'zining biror narsani xal etish, mustaqillikda kattalar bilan teng huquqli ekanligini yoqlash ehtiyojidir. Dars jarayonidagi baxs chog'ida o'qituvchi o'quvchilar bilan baravar haqiqat izlovchisi bo'lib harakat qiladi. Ana shu bahsda u o'z bilimini namoyish etadi, keng fikrlaydi, fikrlarini dalillar bilan asoslaydi, bu fazilatlar esa o'quvchilar o'rtasida o'zaro katta hurmat uyg'otadi. Bahs jarayonida har bir o'quvchining "shaxsiy fikri", o'z mavqeini ifodalash va asoslash malakasi yuksak qadrlanadi.

1. **Mashq.** Mashq – bu o'tilgan o'quv materiallarini amaliyotda qo'llash maqsadida, rejali tashkil etilgan amallarni ko'p marotaba bajarishdir. Ushbu usulning afzalligi shundan iboratki, u ko'nikma va malakalarni samarali shakllanishini ta'minlaydi.

Mashq – ko'nikma va mahoratlarning tashkil etuvchilari bolganligi kabi ishlab chiqarish ta'limining ham asosiy usuli bo'lib hisoblangan mashqlar bilan shakllanadi. Mashq deganda ongli ravishda ma'lum bir faoliyat usuli bo'yicha amaliy harakatlarni ko'p martalab takrorlash tushuniladi.

Talabalarning mustaqil kuzatuvi. Bu usul asosan murakkab tuzilishdagi jixozlarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq kasbni egallamoqchi bo'lgan talabalarning ishlab chiqarish ta'limida q'llaniladi.

Kuzatuv o'quvchilar tomonidan mustaqil ravishda, ishlab chiqarish ta'limi ustasining nazorati va uning ko'rsatmalari bo'yicha o'tkaziladi. Topshiriqda odatda

mustaqil kuzatuvlar maqsadi qo'yiladi, ularni o'tkazish tartibi ko'rsatiladi va kuzatuv natijalarini qayd qilish bo'yicha ko'rsatmalar beriladi.

Maxsus fanlar bo'yicha mashqlarni quyidagi turlaridan foydalaniladi.

Sharxlangan mashqlar o'quv jarayonini faollashtirishga, vazifalarni ongli ravishda bajarilishiga xizmat qiladi. Ushbu mashqlarning mohiyati shundan iboratki, o'qituvchilar va o'quvchilar bajarayotgan ishlarni sharxlaydilar, natijada ular o'zlashtiriladi va tushunib yetadi. Avval bunga eng yaxshi o'quvchilar jalb etiladi, keyin esa o'quv materialini tushuntirishda butun guruh ishtirok etadi. Sharxlangan mashqlar usuli o'quv mashg'ulotining yuqori suratini ta'minlaydi, materialni barcha o'quvchilar tomonidan ongli va mustaqil ravishda, mustahkam o'zlashtirishiga yordam beradi.

Og'zaki mashqlar ta'lim oluvchilarning nutq madaniyati va mantiqiy tafakkurini taraqqiy ettirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ularning bilim imkoniyatlari bilan bog'liq.

Yozma mashqlarning asosiy vazifasi – kerakli ko'nikma va malakalarni shakllantirish, chuqurlashtirish va mustahkamlashdan iborat.

Grafik mashqlar ishlab chiqarish jarayonlari bosqichlari o'rganish jarayonida ishlatiladi.

Laboratoriya – amaliy mashqlar mehnat asboblari, laboratoriya uskunalaridan (jihozlar, o'lchov apparatlari) foydalanish malakalarini egallashga imkon beradi. konstruktorlik – texnik maxoratni rivojlantiradi.

Ishlab chiqarish – mehnat mashqlari o'quv va ishlab chiqarish xarakteridagi alohida ishlab chiqilgan tarmoqni tashkil etadi. Ular oddiy va murakkab bo'ladi: birinchisi – alohida mehnat usullarini bajarish mashqlari, ikkinchisi – ishlab chiqarish – mehnat ishlarini butunligicha yoki ularning talay qismini (stanoklarni sozlash, detal qismlarini tayyorlash va x.k.) ko'zda tutilgan.

Ishbilarmonlik yoki rolli (vaziyatli) o'yin.

Ishbilarmonlik yoki rolli vaziyatli o'yinlar – muammoli vazifaning bir turi bo'lib, faqatgina matnli o'quv materialni o'rniga o'quvchilar tomonidan rollar o'ynaladigan hayotiy vaziyat sahnalashtiriladi.

- **O'rgatuvchi:** umumta'lim mahoratni shakllantirish; ijodiy qobiliyatni o'stirish; shu jumladan: yangi vaziyatlarni tushuntirish, aniqlash va tahlil qilish;

- **Rivojlantiruvchi:** mantiqiy tafakkurni, nutqni, atrof-muhit sharoitiga oqobiliyatini o'stirish;

- **Mativasion:** o'quvchilarni o'quv faoliyatiga undamoq, mustaqil xulosaga kelishga rag'batlantirmoq;

- **Tarbiyaviy:** masuliyatni, mustaqillikni shakllantirish.

- **Muammoli vazifalar usuli.**

Muammoli vazifalar usuli – o'quvchilarga muammoli vaziyatlarni va ularning faol bilish faoliyatini tashkil etishga asoslangan usuldir. U, aniq vaziyatlarni taxlil qilish, baholash va keyinchalik qaror qabul qilishdan iborat. Bu usulning yetakchi funksiyalariga quyidagilar kiradi:

- o'rgatuvchi: bilimlarni dolzarblashtirishga asoslangan;
- rivojlantiruvchi o'quvchilarga taxliliy tafakkurni berib, alohida dalillar orqasidagi hodisa va qonuniylikni ko'ra bilishni shakllantirish;
- tarbiyalovchi: kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish.

Muammoli vazifalar usuli o'quvchilarning mustaqil ishlarini murakkablashtirishga asoslangan: ilmiy tushunchalarni, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish asosida yotgan u yoki boshqa materialni chuqur mantiqiy taxlil qilishga asoslangan.

Modulli ta'lim texnologiyasi-shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasidir. U ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun o'quv jarayonini optimallashtirish, o'quvchilarning bilish va tarbiyaviy soxalarini rivojlantirish, o'rganish faoliyatini boshqarish bilan birga o'z-o'zini boshqarish kabilarga keng imkoniyatlar yaratish bilan ta'lim jarayonining yaxlitligini ta'minlashga

qaratilgan.

Modulli ta'lim dunyo tajribasida qo'llanilib kelayotgan (Buyuk Britaniya, Gollandiya, AQSH, Rossiya) ta'limning samarali shaklidir. Lekin uning didaktik ta'minoti to'liq ishlab chiqilmaganligi sababli keng tarqalmayapti.

P.Modulli texnologiya umumlashgan universal tizim bo'lib, ta'lim-trabiya maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiladigan barcha optimal va mos texnologiyalarni o'z ichiga oladi.

Bu texnologiya quyidagi g'oya, printsiplari va qoidalarini amalga oshiradi:

1.O'quv materialini, uni o'zlashhtirish uchun taklif va topshiriqlar bilan birgalikda yirik blokni qilib tashkil etish.

2.O'quvchilar tomonidan o'quv materialini mustaqil ishlab chiqilishini mo'ljallash.

3.O'quv faoliyati algoritmi va dastur yordamida o'quvchilar faoliyatini boshqarish.

4.O'qituvchi metodik tizimning ochiqqligi (o'quvchilarga darsda bajariladigan ishlar rejasi va materialni o'rganish dasturi oldindan aytib o'tiladi).

5.Materialni o'zlashhtirish darajasi, uni o'rganish shakli, joyi va tempini o'quvchilar o'zlari tanlab olishlari mumkin.

6.Uyga vazifa ixtiyoriy.

7.Har bir o'quvchining samarali bilim olish faoliyati uchun sharoit yaratish.

8.Nazorat mezonlari va mazmuniga o'quvchilarni perspektiv yo'naltirish.

9.o'quvchiga va uning qobiliyatiga ishonch ko'rsatish.

10.Darsda, ish jarayonida erkin o'z-o'zini nazorat qilish va o'zaro yordam.

11.Baxosiz operativ nazorat.

12.Yakuniy nazoratga qarab natijani baxolash joriy natijalarning o'rta arifmetik xisobi emas.

13.Har bir o'quvchiga yakuniy natijani yaxshilash imkoniyatini berish.

14.Ijodiy faoliyatda o'z imkoniyatlarini amalga oshirish.

15.O'quv jarayoni samaradorligini baxolashda o'quvchilar ishtirok etadi.

Hamkorlikda o‘qitishning “Arra”, ya’ni “Zig-zag” metodi.

Bu metodda talabalar 6 - 8 tadan bo‘lgan guruhlariga ajratiladi.

Dars materiallari ham alohida blok-modullarga ajratiladi. Har bir blok uchun topshiriqlar tuziladi va har qaysi guruhga bir blokdan tarqatiladi. Har bir guruh mazkur blok uchun ikkitadan mutaxassis tayyorlaydi. So‘ngra har bir guruh yana ikkiga ajratiladi va mutaxassislar o‘zlari o‘zlashtirgan bilimlarini tartib bilan tushuntirib berishadi.



«Arra» metodi asosida o‘qitishni tashkil etishda aniq misollar orqali quyidagicha tushuntirish mumkin. Masalan, sinfda 32 ta talaba bo‘lsa, 4 xil rangli kartochkalar yordamida 8 ta talabadan iborat bir xil rangli kartochkaga ega bo‘lgan 4 ta “mutaxassislar tayyorlash” guruhiga ajratiladi.

Bu guruhlar berilgan blokda topshiriqlarni bajarib bo‘lgach, har biri 4 tadan rangli, lekin bir xil kartochkaga ega bo‘lgan 8 ta guruhga ajratiladi. Mazkur guruhdagi mutaxassislar o‘zlari o‘zlashtirgan bilimlarni tartib bilan tushuntirib berishadi. So‘ngra mavzu yuzasidan munozara o‘tkaziladi.



“Arra” metodida har bir talaba boshqa talaba bergan ma’lumotni diqqat bilan eshitishi, kerakli ma’lumotlarni daftarga yozib borishi lozim. Dars yakunida o‘qituvchi test topshiriqlari yordamida talabalar bilimini baholaydi.

“Arra” metodini boshqa usulda ham tashkil etish mumkin. Buning uchun talabalar 4-5 kishidan iborat guruhlariga ajratiladi. Barcha guruhlariga bir xildagi topshiriqlar beriladi.

Guruhlardagi talabalar topshiriqlarni bo‘lishib olishadi. Har bir talaba o‘ziga tegishli topshiriqni puxta o‘zlashtirishga harakat qiladi. Shundan so‘ng guruhlar “Mutaxassislar uchrashuvi” da bo‘lganidek qayta taqsimlanadi; mutaxassislar o‘zlariga tegishli o‘quv materiallarini tushuntirib berishadi. Mashg‘ulot so‘ngida talabalar bilimi test topshiriqlari yordamida baholanadi.



Test texnologiyasi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 5 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘quv yurtlari va talabalarni test usulida qabul qilish to‘g‘risida»gi qarori O‘zbekistonda MDH davlatlari ichida birinchi bo‘lib testshunoslikdan foydalanishga keng yo‘l ochib berdi. Jahon pedagogika va psixologiyasida mustahkam o‘rin olgan test usuli mamlakatimiz tahlil tizimida jadallik bilan tadbiiq qilinmoqda. Respublikasi Davlat Test markazining faoliyat ko‘rsatayotganligi mamlakatimizda testshunoslikning davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan masala darajasiga ko‘tarilganligining yaqqol dalilidir.

Pedagogik testlar AQSH, Niderlandiya, Angliya, Turkiya, Janubiy Koreya, Yaponiya va boshqa ko‘pgina mamlakatlarda keng rivoj topdi. Ushbu ro‘yxatga asosan turmush darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlar kirganligi tasodif emas. Bunda quydagi zanjirli bog‘lanish mavjud; testlarni qo‘llash tahlil sifatiga ijobiy tahsir ko‘rsatadi; tahlil sifati esa boshqaruv sifati bilan bog‘liq; oqiloni boshqaruv esa aholi turmush darajasini oshirish uchun zamin yaratadi.

Testshunoslik batafsil bayon etilishi zarur bo'lgan alohida soha ekanligi va shu bilan birga test topshiriqlari pedagogik texnologiya bo'yicha loyihalangan tashhislanuvchi o'quv jarayonni amalga oshirishning muhim vositasi ekanligini ham ehtiborga olib, bu bo'limda testshunoslik tarixi (J.Fisher, F.Gamelton, CH. Grim, CH. Rassel), test usulining afzalliklari, test shakllari va ularni tuzishga oid didaktik talablar haqida ixcham ma'lumot beriladi.

1. Test shakllari va ulardan foydalanish.

«Testning rivojlanish tarixi va uning ijobiy tomonlari»

Test (ingl. - sinov) birinchi marta 1864 yilda Buyuk Britaniyada J. Fisher tomonidan talabalarning bilim darajasini tekshirish uchun qo'llanilgan. Test sinovlari nazariy asoslarini keyinchalik ingliz psixologiya F. Gamelton ishlab chiqdi. Test sinovlari dastlab psixologiya fani doirasida rivojlandi. XX asr boshida esa test sinovlarini ishlab chiqishda psixologik va pedagogik yo'nalishlar bir-biridan mustaqil ajrala boshladi. Pedagogik test sinovlari birinchi marta amerikalik psixolog E. Torndayk tomonidan yaratilgan.

Psixologiya va pedagogikada test sinovlarining rivojlanishi matematik uslublari ham qo'llashni taqozo qildi. Bunday uslublari o'z navbatida testlarni ishlab chiqishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida test sinovlariga talabalarning o'quv qobiliyatlarini baholash vositasi sifatida qarash ancha kuchaydi. Aynan shu davrdan boshlab test sinovlari ikki asosiy yo'nalish: aqliy (intellektual) rivojlanish darajasini aniqlash testlarini yaratish va qo'llash hamda talabalarning o'qish qobiliyatlarini va bilimlarini baholashga mo'ljallangan pedagogik testlarni yaratish va ulardan foydalanish sohalari rivojlana boshladi. Test tuzuvchilar turli odamlarda tahsirga javob berish vaqti bir xil emasligini aniqladilar bu esa odamlarning aqliy qobiliyatlarini o'rganish zarurligi va turli darajadagi testlar yaratish usuli bo'yicha amaliy ishlar olib borish lozimligiga olib keladi.

Test sinovlarining asosiy maqsadi: ham o`tilgan darslarni o`zlashtirish darajasi to`g`risida, ham navbatda o`rganilishi lozim bo`lgan dars hajmi to`g`risida o`qituvchiga axborot berish; o`qituvchiga o`qitish uslubini tanlashda yordam berishdan iborat deb hisoblangan.

Talabalar bilimlarini baholashning turli usullarini tahlil etib, testlarni guruhlariga ham urinib ko`rilgan. CH. Grin (1926) o`zining «Test novoga tipa» (Yangi turdagi test) nomli monografiyasida ilgari yaratilgan va ishlatib ko`rilgan testlarning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilib quyidagi tavsiyalarni berdi:

- ✓ test sinovlari uchun mo`ljallangan material hajmini aniq belgilash va uning tarkibidagi eng muhim qismlarini ajratib olish;
- ✓ mazkur material uchun test sinovlarining eng maqbul shaklini tajriba yo`li bilan aniqlash;
- ✓ talabalarining test sinovlari vaqtida javob berishlari o`rtacha tezligi to`g`risidagi amaliy mahlumotlarni ehtiborga olgan holda, test sinovlarining davom etish vaqtini belgilash;
- ✓ test sinovlardagi fikrlarni bayon qilinish tilining to`g`riligini va mantiqqa muvofiqligini tekshirish;
- ✓ topshiriqlarni murakkabligi ortib borish tartibida joylashtirish, to`g`ri va noto`g`ri javoblarning doim bir navbatda almashinishga yo`l qo`ymaslik.
- ✓ CH. Rassel test sinovlarining natijalarini o`rganishni davom ettirib, test sinovlarining natijalarini o`rganishni davom ettirib, test sinovlarining maqsadi to`g`risidagi savolga javob berishga erishdi.

Agar testlarni turkumlashda ularning qo`llash maqsadi va vazifalariga asoslanadigan bo`lsak, psixologik testlardan tashqari testlarni quyidagi uch guruxga ajratish mumkin.

- ✓ Intelektual rivojlanish darajasini aniqlovchi testlar
- ✓ Pedagogik testlar
- ✓ Muayyan kasbga yaroqliligini teekshiruvchi testlar.

**Kasb-hunar kollej o`quvchilariga Kiyimlarni modellashtirish fanidan
“Ayollar uy kiyimlarini modellashtirish va badiiy bezash” mavzusini o`qitish
uslubiyotini ishlab chiqish.**

DARS ISHLANMA

Mavzu: “Ayollar uy kiyimlarini modellashtirish va badiiy bezash” mavzusini o`qitish
uslubiyotini ishlab chiqish.

Maqsad:

Ta’limiy: Talabalarga ayollar uy kiyimlarini modellashtirish va badiiy bezashni o`rgatish.

Tarbiyaviy: kasb–hunar o`rgatish va yo`naltirish, talabalarga mehnatsevarlikni, tejamkorlikni o`rgatish.

Rivojlantiruvchi: O`quvchilarda ijodiy tafakkur, tasavvur va fantaziyasini, ayollar uy kiyimlarini yangicha modelini va uni badiiy bezash usullarini o`rgatish.

Dars turi : ma`ruza.

Dars metodi: Tushuntirish, suhbat, ko`rsatmalilik, zig-zag metodi.

Dars jihozi: ko`rgazmali materiallar,

O`quv soatlari: 2 soat (80 daqiqa)

Darsning borishi:

I. Darsni tashkil qilish. 1. Salomlashish.

2. Davomatni aniqlash.

3. Talabalarni darsga tayyorlash.

**II. O`tilgan mavzu bayoni:** Oldingi mavzu yuzasidan savol –javob o`tkazish, berilgan topshiriqni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni

Ayollar uy kiyimi. Qulay, yaxshilab o`ylab tikilgan uy kostyumi odamga va xonadonga yarashibgina qolmay, balki kishi kayfiyat yaxshi bo`lishiga, uni ish yuritishiga ko`mak bo`ladi, atrofdagilarni ham mamnun etadi.

Ayollar uy kiyimi umuman xonadonning ichki ko`rinishiga muvofiq keladigan, odam atrofidagi narsalarga mos tushgan, monand bo`lishi kerak. Ayollar uy kiyimi — bu interer umumiy ansamblining bir qismi.

Ayollar uy kiyimi ham moda ta'sirida bo`ladi va kiyimning aynan shu vaqtga xarakterli bo`lgan silueti, uzunligi, dekori, assortimenti Ayollar uy kiyimida ham aks etadi.

Konkret shakllarni, materialar, dekorativ bezaklar, uslub echimlarini tanlashda odam shaxsiyati namoyon bo`lishi uchun Ayollar uy kiyimi katta imkoniyatlar beradi. Lekin Ayollar uy kiyimining umumiy tuzilishi uyda odamlarning batartib, ko`rkam va bardam ko`rinishiga yordam beradigan bo`lishi kerak.



25-rasm. Ayollar uxlash kiyimlari

Ayollar uy kiyimi nimaga mo`ljallanganligiga, yil fasliga va sutka vaqtiga qarab quyidagi guruhlariga bo`linadi:

- . Uxlash kiyimi, ertalabki va kechki yuvinish-taranish kiyimi.
- . Uyda ishlash kiyimi.
- . Mehmon kutish kiyimi.

Uxlash kiyimi — tungi ko`ylaklar, pijama poetik vazifasini o`taydi. Harir, ochiq rangli, yumshoq gazlamalar, to`rlar, kashtalar, qo`yma burmalar ayol kishi qiyofasiga noziklik tiniqlik baxsh etadi. Bichimi sodda, choklari minimal darajada kam, odatda bo`yi uzun, uni ancha yengillashtirib, ixcham qilib ko`rsatadi. Kiyim assortimenti, bo`yining uzunligi odamning yoshiga, gavda tuzilishi xususiyatlari, turmush tarzi va sharoitiga qarab tanlanadi.

Uxlash kiyimi o`simlik yoki geometrik xarakterdagi siyrak, mayda gullari bor ochiq mayin tusli bo`lishi kerak, bu uning massasi kam bo`lishi talabiga to`g`ri keladi. Bezaklar-kashta, qo`yma burmalar, ikki tomonlama qo`yma burmalar,

to'rlar, mag'izlar, beykalar, tasmalar, bantlar, tikma to'rlar, pechak tasmalar va boshqalar bo'ladi.

Ertalabki va kechki yuvinish-taranish kiyimi — bu tungi kiyim ustidan kiyiladigan xalat. Bu kiyim tungi ko'ylak yoki pijama bilan komplektda hal etiladi, shuning uchun ularning hajmi, uzunligi, yenglarinig bichig'i, yoqa o'mizining o'yig'i va yoqasining xarakteri, bezaklari, rangi bir-biriga moslangan bo'lishi kerak. Taqilmasi bir bortli yoki ikki bortli, minimal miqdorda tugma chatilgan yoki belbog'li bo'ladi. Xalatlar turli shakldagi yoqali yoki yoqasiz, cho'ntaklari chokda yoki qoplama bo'lishi mumkin. Bu kiyim tungi kiyim materialidan yoki shunga monand gazlamadan tikilishi mumkin.

Ko'pincha qalpoqcha yoki durracha zarur qo'shimcha bo'lib, bular soch turmagini avaylashga yoki yoyilgan sochni yig'ishtirib turishga xizmat qiladi.

Uyda ishlash kiyimi asosan shim, yubka, bluzka, sarafan, peshband kabilardan iborat komplektda hal qilinadi. U rasmiyat va ishchanlik xususiyatlarisiz, shakli, ko'shimchalari va ziynatlari hisobiga o'ng'aylik, bemalollik tuyg'usi hosil qiladigan bo'lishi kerak.


Uyda ishlash kiyimi komplektlari nihoyatda bemalol harakat qilishga xalaqit bermaydigan bo'lishi kerak. Buning uchun trikotaj maykalar, sviterlar bilan shim kiyiladi yoki gavdaga yopishib turmasligi uchun qo'yimi ko'paytirilgan bluzkalar kiyiladi.

Shakl, rang, material va dekorativ bezakning monandligi hisobiga Ayollar uy kiyimi bilan peshbandning komplekt bo'lishiga erishiladi. Peshband vositasida gavdaning ko'ngildagidek idrok yetilishiga erishsa bo'ladi. Masalan, yelka bog'larini bo'yinga yaqin bog'lab, yelkalarni toraytirib ko'rsatsa bo'ladi, burmalar bo'ksani kengroq, taxlamalar esa torroq qilib ko'rsatadi, ko'krakpechning kengi ko'kraklar hajmini kattalashtirsa, ensiz, cho'zig'i kichiklashtiradi.




26-rasm. Ayolarning o'timli halati

9-rasmda keltirilgan xalat yeng oʻmizidan relief chiziqlari oʻtgan, ikki yoqlamali boʻlib, bel qismida ikkita tugmachali orqali xalatning old boʻlagi bir-biriga oʻtib taqiladi. Yon qismi detallarida qirqma choʻntaklari bor. Orqa boʻlakdagi relief choklari yelka chizigʻidan boshlangan. 27-rasmda koʻrsatilganidek model chiziqlari kiritiladi. 28-rasmda esa ikki yoqlamali taqilmali xalatning andozasi keltirilgan.



xalatning andozasi.




ravishda model chiziqlarini kiritish.

29-rasm xalat-fartuk

olinadi. Xalat-fartuk andozasi shunday hosil qilinadiki, bunda xalatning yeng qismi 29-rasmda ko'rsatilgandek yaxlit olinadi. Rasmda gazlama buklangan holida modelning andozasini gazlamaga joylashtirish ko'rsatib berilgan. Orqa va old bo'lakda vitochkalar uzunligi o'tkazilgan oval yarim koketka keltiriladi. Bel qismida 15—20 sm dan berilgan o'tim xalat-fartukni old va orqa tomonda belbog' bilan bog'lanishiga qulaylik yaratadi.

Kundalik kiyim. Odamning tashqi ko'rinishi, uning sanoat korxonasidagi, qishloq, xo'jaligidagi, muassasalardagi, savdo,

bo'y ipi bo'ylab buklovda



30-rasm. Xalat-fartuk modeli andozasini gazlamag joylashtirish.

transport, maishiy xizmat sohasidagi va boshqa yerlardagi kiyimi qandayligi katta ahamiyatga ega. Kundalik kiyim — bu ham ish, ham xizmat kostyumi. Bir qancha kasbdagi kishilar ish xususiyatlari yoki ishlab chiqarish sharoiti sababli maxsus kiyim kiyadi (metallurqlar, o't o'chiruvchilar, baliqchilar va boshqalar) yoxud boshqalardan farq qilish vositasi sifatida forma kiyim kiyadi (harbiylar va mahkamalar formasi).

Kundalik kostyumning rang echimi uning nimaga mo'ljallanganligi va uni qanday ishlatilishi xarakteriga qarab tanlanadi. Odatda, bunday echim mo'taddil, bosiq, o'xshash va o'xshash-kontrast ranglarni birga qo'shib hal qilinadi, kontrastlar asosan rang tuslarining oqishliklari yoki ikkita yaqin ranglar o'rtasida bo'ladi.

Materialni kiyim nimaga mo'ljallanganiga, estetika




talablariga qarabgina emas, balki mehnatning xususiyati belgilab beradigan gigiyenik talablariga ham qarab tanlanadi.


Dekorativ bezaklar, kompozision markaz qayerda bo'lishi kiyimning funksional vazifasiga bog'lab hal etiladi.

Qo'shimchalar xarakterining qandayligi shu qo'shimchalar nimaga mo'ljallanganiga qarab belgilanib, u ham ishbop kostyumni umumiy xarakteriga bo'ysundirilgan bo'ladi.

Kundalik kiyimlarni modellashtirish. 31-rasmda ko'rsatilgan kundalik ko'ylakni bo'lajak onalarga ham tavsiya qilish mumkin. Ko'ylak etak qismiga kengayib borgan, old bo'lakda qo'yim taqilmasi bor. Yoqasi, qo'yimi va yeng manjetini boshqa ranglarda tikilsa, modelni yanada quvnoq qilib ko'rsatadi. Bu ko'ylak andozasini hosil qilish uchun 13-rasmda ko'rsatilganidek, asos chizmasiga o'zgartirish kerak. 14-15 rasmlarda esa ko'ylakning andozalari komplekti to'liq ko'rsatilgan. 16 va 17 rasmlarda yana bitta kundalik ko'ylakni modellashtirish jarayoni ko'rsatilgan.



16-rasm. Orqa, old bo'laklar va boshqa detal andozalarini hosil qilish.



17-rasm. Orqa, old bo'laklar va boshqa detal andozalarini hosil qilish.

Ayollar bosh kiyimi – ro`mol hisoblangan. XX asrga kelib qiz bolalar va kelinchaklar do`ppi kiya boshlaganlar. Ungacha do`ppini faqat erkaklar va yosh bolalar kiyishgan.

Bugungi kunga kelib, albatta ayollar ko`ylagi juda o`zgarib ketgan bo`lsa ham, shakli va bichimi saqlanib qolgan bo`lib turmushda ishlatilib kelmoqda. Ayollarning an'anaviy milliy ko`ylagi milliy mansublik simvoli bo`lgani uchungina emas, balki, asosan xalq kostyumida iqlim xususiyatlariga, tevarak atrofdagi tabiatga va turmush tarziga to`g`ri keladigan ratsional shakllar bir necha asrlardan beri saralanib kelgani uchun saqlanib qoldi. Ayollar ko`ylagidagi yorqin ranglar mutanosibligi o`lkamiz tabiatiga monand tushgan bo`lib, shaklining kengligi jazirama quruq iqlim sharoitiga mos keladi.

Milliy liboslar tarixini o`rganish jarayonida, ularni kiyish bilan bog`liq bo`lgan an'analar, urf-odatlar ba rasm-rusumlarni o`rganish talabalarning qiziqishlarini oshiradi ba ularni xalqning madaniy merosini chuqurroq o`rganishga undaydi. O`zbek liboslarining turmushda qanchalik muhim ahamiyat kasb etganligini talabalarga singdirishdan maqsad – yoshlarga milliy o`zligini anglatish, xalqimizning boy madaniy merosini aks ettirish ba davomiyligini anglatishdan iboratdir, bu esa ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim rol o`ynaydi.

1-blok:

- 1 Kiyimlarni modellashtirishning qanday maqsad va bosqichlari mavjud?
- 2 Kiyimlarni vazifasiga ko`ra nechta sinfga bo`lish mumkin?
- 3 Modellashtirish necha xil va qanday yo`nalishda olib boriladi?



2-blok:

1. Moda deb nimaga aytiladi?



2. Moda jurnallari qachon paydo bo`lgan va hozirgi davrda qandaymoda jurnallari bor?
3. Kiyim modellarida qanday chiziqlar turlari uchraydi?

3-blok:

1. Mutanosiblik deganda nimani tushunasiz va uning kiyimlarda aksetishini tushuntirib bering?
2. Uy kiyimi turlari va ularga ta'rif bering.
3. Kiyim kompozitsiyasida simmetriya va assimetriyaning qanday rolibor va ular kiyimda qanday namoyon bo`ladi?



4-blok:

1. Kiyimni qanday gazlamalardan tikish mumkin?
2. Gazlamalarning fakturasini tushuntirib bering.
3. Gazlamalarning gullari qanday bo`lishi mumkin?

IV. Darsni mustahkamlash:

V. Talabalar ishini baholash.

VI. Uyga vazifa: Material qoldiqlaridan badiiy bezak sifatida qo`llash uchun gul yasab kelish.

3.1.Tajriba – sinov ishlarini tashkil etish

Ta`lim tizimida uslubiy faoliyat o`qituvchilarning ijodiy imkoniyatlarini, ularning kasbiy mahoratini rivojlantirishga, oxir-oqibatda, mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq holda ta`lim muassasalari bitiruvchilari sifatini oshirishga yo`naltirilgan o`zaro bog`liq tadbirlar tizimi sifatida qaraladi. Uslubiy faoliyatda quyidagi yo`nalishlar eng muhim hisoblanishi aniqlandi: o`quv rejasini o`zlashtirish va amalga oshirishni ta`minlash; davlat ta`lim standartlarini o`rganish va amalga oshirish bo`yicha ishlash; yangi pedagogik texnologiyalarni targ`ibot qilish va amalga joriy etishda fan o`qituvchilariga yordam ko`rsatish; tajriba-sinov o`tkazish faoliyatiga rahbarlik qilish; tajriba-sinov ishini tashkil etish; o`qituvchining kasbiy tayyorgarligini oshirish; dolzarb muammolar bo`yicha joylarda kasbiy maslahatlar berish.

Pedagogik tajriba-sinov ishlaridan ko`zlangan maqsad, o`quvchilarni ma`naviy-axloqiy tarbiyalashda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o`qitish jarayonida o`quv faoliyatini rivojlantirishga, ularni fikrlash jarayonini o`sishiga ko`maklashishni aniqlashdan va mustaqil o`quv faoliyat malakalarini rivojlantirishni ta`minlay olishni tekshirib ko`rishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalarini hal qilish maqsadida Namangan shahar Yengil sanoat kasb-hunar kolleji Tikuvchilik ishlab chiqarish va ularga xizmat ko`rsatish yo`nalishida o`quvchilariga **“Kiyimlarni modellashtirish”** fanidan **ayollar uy kiyimlarini modellashtirish va badiiy bezashni** o`rgatish jarayoni tanlandi. Ushbu pedagogik tajriba-sinov ishida MK-241 hamda MK-243 guruh o`quvchilari jalb etildi. Kasb-hunar kollejida mashg`ulotlarni tashkil etish bo`yicha uslubiy ishlarning holati baholandi.

Tajriba ob'ektlarida guruhlar "Tajriba" guruhlariga, ya'ni darsning samaradorligini oshirish maqsadida ta'lim yangi pedagogik texnologiyalar asosida olib boriladi. "Nazorat" guruhlarida esa darslar an'anaviy tarzda o'tkaziladi.

Tajriba o'tkazish jarayonida o'quvchilardan test olish savol-javob ko'rinishida olib boriladi. O'tkazilgan tajriba, tekshirish va kuzatishlar natijasi matematik statistik usullari bilan tekshirish va tahlil qilish ishonchli xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Tadqiqot vaqtida ma'lum mezonlarga muvofiq tahlil qilish natijasida uslubiy ishlarni tashkil etishning noan'anaviy shakllaridan foydalanishga ta'luqli bilim va ko'nikmalarning yetarli emasligi aniqlandi. SHuning uchun kasb-hunar muassasalarida uslubchilar faoliyatini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatma yaratildi. Dastur bo'yicha nazariy mashg'ulotlar o'tkazildi.

Misol sifatida guruhlarda o'tkazilgan yozma nazorat natijalarini keltiramiz. Tajriba va Nazorat guruhi o'quvchilariga 10 tadan savollari bo'lgan variantlardan iborat testlar berildi.

Guruhlar bo'yicha tajriba savollarini yechish natijalari.

Namanga shahar Yengil sanoat kasb-hunar kolleji o'quvchilarining nazorat ishi natijalari

"Tajribaviy" guruh sifatida MK-243-guruh o'quvchilarining erishgan natijalari:

№	Guruhlar	Tajribaviy	
		1	2
	Qatnashchilar soni	10	10
1	Abdurashidova M.	73	71
2	Abdug'aniyeva B.	70	84
3	Ahmedova O.	72	79
4	Jo'rayeva F.	75	75
5	Rahimova M.	67	76
6	Inamova N.	77	80
7	Mamadaliyeva K.	88	78

8	Ne'matullayeva Z.	87	84
9	Otaboyeva M.	74	77
10	Yunusova S.	71	85

“Tekshiruv” guruhida guruh o'quvchilarining erishgan natijalari:


№	Guruhlar	Tekshiruv	
		1	2
	Qatnashchilar soni	10	10
1	Ahmadjanova M.	73	76
2	Boymirzayev B.	68	69
3	Jorayeva V.	70	73
4	Mamatjanova S.	59	64
5	Nabiyeva A.	75	74
6	Parpiyeva M.	84	86
7	Salimjanova I.	65	70
8	Umarova K.	64	66
9	Sharipova N.	74	71
10	Qosimjonova G.	77	75

Shundan xulosa qilib aytish mumkinki, biz ilgari surayotgan nazariy g'oyalar amaliyotga tadbiq etilganda o'zining ijobiy samarasini berdi.

3.2. Tajriba-sinov ishlarining natijalari

Tashkil etilgan mashg'ulotlardan keyingi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini solishtirish, natijalarni qayta ishlash uchun Maknamera mezonidan foydalanildi.

O'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining umumlashtirilgan natijalari rasmda keltirilgan.



1- sinov guruhi; 2- tajriba guruhi.

■ noana'naviy mashg'ulotlardan keyingi o'zlashtirish darajasi;

■ an'anaviy mashg'ulotdan oldingi o'zlashtirish darajasi;

Tajriba-sinov natijalari gistogrammasi

Maknamera mezonida biror bir yagona tanlama (masalan o'quvchilar guruhi) biror bir, masalan, bilimni o'zlashtirish, ko'nikma va malakasining shakllanishi ikki marta o'lchash (baholash) natijalari (x_i, y_i) ($i = 1, 2, \dots, N$) qayd etiladi. Bunda N -o'quvchilar soni, x_i, y_i - lar esa mos ravishda tanlangan ob'ektlarning xossasini dastlabki (ya'ni biror-bir usul qo'llashdan oldin) va keyingi

(ya'ni biror-bir usul qo'llangandan so'ng) o'lchash natijalari. Har bir o'lchash ikki kategoriya bo'yicha olib boriladi va ularni 0 va 1 bilan belgilanadi. SHuning uchun (x_i, y_i) juftliklar quyida to'rt $(0, 0)$, $(0, 1)$, $(1, 0)$ va $(1, 1)$ ko'rinishda bo'lishi mumkin, ya'ni a, v, s va d

Mezon statistikasini tanlash $b+c$ yig'indining qiymatiga bog'liq bo'ladi.

Agar $b+c > 20$ bo'lsa, mezon statistikasi sifatida

$$S_1 = \frac{(b-c)^2}{b+c}$$

tanlanadi. Bu holda statistik farazni tekshirish χ^2 - kvadrat mezoni asosida olib beriladi.

Agar $b+c > 20$ bo'lsa mezon statistikasi sifatida

$$S_2 = \min(b, c) \text{ tanlanadi.}$$

Qo'llanilgan metodikaning samaradorligini tekshirish χ^2 - kvadrat mezoni asosida olib borildi va buning uchun mezon statistikasining qiymati

$$\text{aniqlandi. } S_1 = \frac{(b-c)^2}{b+c} = \frac{100}{24} = 4,2.$$

Ahamiyatlilik darajasi uchun $\alpha = 0,05$ qiymat tanlab olindi.

χ^2 -kvadrat taqsimot jadvalidan mezon statistikasining shu qiymatiga mos kelgan kritik qiymati $\chi^2_{kp} = 3,84$ topildi.

$S_1 > \chi^2_{kp}$ ($4,2 > 3,84$) bo'lganligi uchun qabul qilingan $\alpha = 0,05$ ahamiyatlilik darajasida H_0 faraz rad etildi va H_1 faraz qabul qilindi. SHunday qilib, kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining tayyorgarlik darajasi mashg'ulotga qadar va mashg'ulotdan so'ng farqi turlicha ekanligi aniqlandi. Dastur asosida ma'ruza va

mashg'ulotlar olib borish ularning o'quv-uslubiy ishlarni tashkil etish bo'yicha tayyorgarligini sifat jihatdan oshirishga yordam beradi. Amalga oshirilgan ishlar natijasida ikkita guruh bo'yicha ko'rsatgich, o'zlashtirish bilimlari darajasi o'rtacha 69,4 dan 72,6 ga tengligi aniqlandi.

XULOSA

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda kasb-hunar kollejlarda kichik mutaxassislar tayyorlash, zamonaviy o`quv uslubiy majmualarni ishlab chiqish, o`quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo`llash muhim vazifalardan hisoblanadi.

- BMI da kasb-hunar ta'limida yengil sanoat yo'nalishi bo'yicha kichik mutaxassislar tayyorlashning metodologik muammolari o'rganilib, maxsus fanlarni o'qitishda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishga alohida e'tiborni qaratish lozimligi ilmiy jihatdan asoslandi;

- o'tkazilgan nazariy izlanishlar asosida mavzuni test texnologiyasida o`quv materialini mustaqil o`zlashtirish uchun yetarli sharoitlar yaratilishi, o'qitishni jadallashtirishga erishilishi, kasbga qiziqtirish asosida faollashtirish, mustaqil o`qish imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish aniqlandi;

- kasb-hunar kollejida "Ayollar uy kiyimlarini modellash va badiiy bezash" mavzusidagi ma'ruza bo'yicha o'tilgan hamkorlikda o'qitishning "Arra", ya'ni "Zig-zag" metodidan foydalanish bo'yicha o'tkazilgan tajriba –sinov ishlari natijalari shuni ko'rsatdiki, "Kiyimlarni modellashtirish" fani bo'yicha tajriba sinov guruhlarida "a'lo" va "yaxshi" bahoga o'zlashtirish oshdi, "Qoniqarli" baho olganlar kamaydi, "Qoniqarsiz" baho oluvchilar bo'lmadi. Demak, tajriba-sinov guruhlarida yaxshi baholarning oshishi va qoniqarsiz baholarning kamayishi BMI da ishlab chiqilgan "Ayollar uy kiyimlarini modellash va badiiy bezash" mavzusidagi faol usullarni qo'llashda ta'lim samaradorligining oshishini isbotladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. “Jahon moliyaviy-iqtisodiy krizisi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishni yo‘llari va choralari” Toshkent. O‘zbekiston. 2009.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. 2000
3. Karimov I.A. 2010 –yil yakunlariga bag‘ishlangan ma‘ruzadan. 22.01.2011 “Xalq so‘zi” gazetasi, №16.
4. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch. – T.: Ma‘naviyat, 2008. – 61-b.
5. Q.M. Abdullayeva, N.S.Gaipova M.A.Gafurova “TIKUV BUYUMLARINI LOYIHALASH, MODELLASH VA BADIY BEZASH” „NOSHIR“ nashriyoti. Toshkent 2010
6. N. Salayeva “Kiyimlarni konstruksiyalash va modellashtirish” fanidan Referat. Jizzax -2014
7. Akademik litsey va kasb – hunar kollejlari uchun o‘quv-me‘yoriy xujjatlar to‘plami. Toshkent: - 2006.
8. Abdullayeva Q. Kasbiy fanlar orqali o‘quvchilarda ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish. J. Pedagogik ta‘lim. – Toshkent, 2004. - №6b –B.53-54.
9. “Ta‘lim to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Toshkent: 1992.
10. Komilova X.X., Hamroyeva N.K. “Tikuv buyumlarini konstruksiyalash” Toshkent. 2003.
11. Xasanboyeva G.K., Krimova O.I. Kiyim modelini ishlash va konstruksiyasini tayyorlash., Toshkent. “O‘qituvchi. 1990.
12. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi. “Nasaf”. 2000.
13. Ochilov M., N. Ochilova. Oliy maktab pedagogikasi” Toshkent. 2008.
14. Toshpo‘latov S.Sh., Komilova X.X., va boshq. Tikuv buyumlarini loyihalash., Toshkent. “Voriz - nashriyot”. 2007.
15. Taylaqov N. Xalq ta‘limiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish – ta‘lim sifatini oshirishning omili sifatida // J. Xalq ta‘limi. – Toshkent, 2005. - №5. – B. 16-20.

16. Jabborova M. “Tikuvchilik texnologiyasi” T. “O’qituvchi”, 1994
17. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent «Moliya» nashriyoti 2003 yil.
18. Farberman B. Ilg`or pedagogik texnologiyalar Toshkent «Fan» nashriyoti 2000 yil.
19. WWW.ya.ru
20. www.silnete.ru